

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.F.01.14 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI**

MAMATKULOV DAVLATJON MAXAMATJONOVICH

**O‘ZBEK XALQI TARAQQIYOTIDA MAFKURAVIY JARAYONLAR
TRANSFORMATSIYASI VA UNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI**

09.00.06 – G‘oyalar tarixi va metodologiyasi

**Falsafa fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Falsafa fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философских наук (DSc)

Content of the abstract of doctoral dissertation (DSc) in philosophy

Mamatkulov Davlatjon Maxamatjonovich

О‘zbek xalqi taraqqiyotida mafkuraviy jarayonlar transformatsiyasi va uning zamonaviy tendensiyalari..... 5

Маматкулов Давлатжон Махаматжонович

Трансформация идеологических процессов в развитии узбекского народа и ее современные тенденции..... 33

Mamatkulov Davlatjon Makhamatjonovich

Transformation of ideological processes in the development of the Uzbek people and its current trends..... 67

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of publications..... 72

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSC.03/30.12.2019.F.01.14 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI**

MAMATKULOV DAVLATJON MAXAMATJONOVICH

**O‘ZBEK XALQI TARAQQIYOTIDA MAFKURAVIY JARAYONLAR
TRANSFORMATSIYASI VA UNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI**

09.00.06 – G‘oyalar tarixi va metodologiyasi

**Falsafa fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida V2023.1.DSc/Fal164-raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) O‘zbekiston Milliy universitetining www.nuu.uz hamda «ZiyoNet» Axborot ta’lim portalining www.ziynet.uz veb sahifasiga joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Musayev Odil Raxmatovich
falsafa fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Saifnazarov Ismoil Saifnazarovich
falsafa fanlari doktori, professor

Ergashev Ibodulla
siyosiy fanlar doktori, professor

O‘roqov Dilshod Jamoliddinovich
tarix fanlari doktori (DSc), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.F.01.14 raqamli Ilmiy kengashning «_____» _____ 2023-yil soat ___ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko‘chasi, 4-uy. Tel.: (99871) 227-12-24; faks: (99871) 246-02-24; e-mail: nauka@nuu.uz. O‘zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti binosi, 5-qavat, 511-xona)

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko‘chasi, 4-uy. O‘zMU Ma’muriy binosi, 2-qavat, 4-xona. Tel.: (99871) 246-67-71; faks: (99871) 246-02-24.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «_____» _____ kuni tarqatildi.
(2023-yil «_____» _____ dagi _____ raqamli restr bayonnomasi).

N.A.Shermuxamedova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, falsafa fanlari doktori, professor

M.T.Xidirov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

J.Yo.Mavlonov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, siyosiy fanlar doktori, dotsent

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda sivilizatsiyalar taraqqiyoti yoki tanazulining falsafiy, tarixiy, ijtimoiy-siyosiy sabablari g'oya atalmish ijtimoiy ong mahsuliga bog'liqligini namoyon etmoqda. Bu holat qadimgi sivilizatsiyalar qatorida bugungi davr taraqqiyotiga ham talluqli bo'lib, globallashuv xususiyatlari sabab g'oya avvalgi davrlarga nisbatan ham ta'sirchan va samarador kuchga aylanib bormoqda. Shuning uchun ham mafkuraviy jarayonlar mazmuni, ularning transformatsiyasini hamda mazkur jarayonning rivojlanish qonuniyatlarini aniqlab ularni muayyan mamlakat, mintaqa yoki global munosabatlar jarayonida hisobga olish barqaror taraqqiyot bilan uzviy bog'liq bo'lganligi sababli dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyoda insoniyat taraqqiyotidagi mafkuraviy jarayonlar, xususan, ilk mafkuraviy qarashlar, dastlabki mafkuraviy transformatsiyalashuv, o'rta asrlardagi mafkuraviy jarayonlar, Yevropada uyg'onish davri, O'rta Osiyoda Birinchi va Ikkinchi Renessansni vujudga keltirgan omillar, mustamlakachilikning mafkuraviy siyosati, mustaqillik va mafkura masalalari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Mafkuraviy ziddiyatlarning turlari, mazmuni hamda uning mafkuraviy echimlarining yo'nalishlari aniqlanmoqda. Mafkuraviy jarayonlarning ilmiy manzarasini yaratishning ijtimoiy mafkuraviy ahamiyatini ilmiy asoslashga ehtiyoj oshmoqda.

O'zbekistonda mafkuraviy ishlarning taraqqiyot lokomotivi sifatidagi roli hisobga olinib, huquqiy asoslarda belgilangan ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanishi bo'yicha belgilangan qat'iy normaga amal qilingan holda jamiyat hayotni yanada liberallashtirish yo'lidan borilmoqda. Ijtimoiy hayotda yaqin va uzoqdagi hamkorlarga shartsiz do'stlik qo'lini cho'zilishi, axborot erkinligini amalda ta'minlana boshlashi, jurnalistik va blogerlik faoliyatining ommalashuvi jamiyat mafkuraviy hayotida teng imkoniyat va huquqlar yaratilayotganidan dalolat bermoqda. Bugungi kunda yangilanish yo'lidan borayotgan jamiyatimiz uchun mafkuraviy o'zgarishlar muhim ekani hisobga olinib, «Biz yaratayotgan Yangi O'zbekistonning mafkurasi ezgulik, odamiylik, gumanizm g'oyasi bo'ladi. Biz mafkura deganda, avvalo, fikr tarbiyasini, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasini tushunamiz»¹, deya yangi mafkura yaratish zaruriyatini e'tirof etilmoqda. Shu ma'noda hozirda jamiyatimizdagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy hamda boshqa sohalaridagi islohotlar mazmunini aks ettiradigan, ularni fuqorolar ongi va qalbiga etkaza oladigan, zamonaviy, pragmatik va latent shaklidagi milliy mafkurani shakllantirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktyabrdagi PF-6084-son «Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini

¹«Biz yaratayotgan yangi O'zbekistonning mafkurasi ezgulik, odamiylik, gumanizm g'oyasi bo'ladi». O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2021-yil 19-yanvar kuni o'tkazilgan videoselektor yig'ilishidagi nutqi // <https://xs.uz> (murojaat qilingan sana: 2021-yil 11-fevral).

takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida», 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son «O'zbekistonning yangi – taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida», 2021-yil 1-iyuldagi PF-6255-son «2021-2026-yillarga mo'ljallangan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy strategiyasini tasdiqlash to'g'risida», 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida» Farmonlari, 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son «Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 3-iyundagi 340-son «Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti faoliyatini tashkil etish to'g'risida», 2022-yil 3-oktyabrdagi 558-son «Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy hamda tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida» Qarorlari hamda sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Ushbu tadqiqot Respublika ilm-fan va texnologiyalarini rivojlantirishning I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy – ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi¹. Mafkura masalasiga oid kognitiv tadqiqotlar natijalaridan unumli foydalanish asosida mamlakat, mintaqa hamda global munosabatlar tizimni takomillashtirish bilan bog'liq ilmiy izlanishlar jahondagi etakchi ilmiy markazlar jumladan, Development Research Center of the State Council (DRC) of the People's Republic of China (Xitoy), Chinese Academy of Social Sciences (CASS) (Xitoy), Center for China and Globalization Studies (Xitoy), The Centre for the Study of Political Ideologies (CSPI) (Buyuk Britaniya), Research Institute of Culture and Ideology (REINCI) (Pokiston), The Peace Research Institute Oslo (PRIO) (Norvegiya), (Центра исследования проблем безопасности Российской академии наук (ЦИПБ РАН) (Rossiya), Carnegie Endowment for International Peace (AQSh)da olib borilmoqda.

Jahonda mafkura sohasidagi tadqiqotlarning aksariyati tarixiy, falsafiy, madaniy, diniy yoki siyosiy tafovvutlarga ega bo'lib, ushbu tadqiqot muammosi bo'yicha olib borilgan izlanishlar negizida, bir qator, jumladan, quyidagi ilmiy natijalar olingan: mafkuraning «yumshoq kuch» rolidan unimli foydalanish orqali mamlakatining ichki va tashqi siyosatdagi maqomini mustahkamlash, qo'shma konferensiyalar, ochiq hisobotlar va ekspert nashr tizimlari ta'sirida davlat mafkurasini eksport qilish uchun ijobiy fon yaratish rejalari ishlab chiqilgan

¹<https://en.drc.gov.cn/>

<https://council.science/member/china-chinese-academy-of-social-sciences-cass/>

<http://en.ccg.org.cn/>

<https://www.nottingham.ac.uk/cspi/>

<https://reinci.com/>

<https://www.prio.org/>

<https://spsc-ras.ru/spsc-ras/>

<https://carnegieendowment.org/>

(Development Research Center of the State Council (DRC) of the People's Republic of China, Chinese Academy of Social Sciences (CASS), Center for China and Globalization Studies; mafkuralarning ijtimoiy-siyosiy amaliyoti, shakllanish usullari va uni fanlar bilan dialektik aloqadorligini tahlil ishlari amalga oshirilgan (The Centre for the Study of Political Ideologies (CSPI); jamiyatda madaniyat va mafkuraning katalizatorlik roli, podkastlar, qisqa videolar orqali madaniyat, mafkura, terrorizmga qarshi kurash, ijtimoiy muammolar, e'tiqod va falsafa masalalariga oid yangi bilimlar yaratilgan (Research Institute of Culture and Ideology (REINCI); ijtimoiy-siyosiy va mafkuraviy munosabatlarda tizimli zo'ravonlik nazariyasi, mojaro va nizolarni hal qilish haqidagi nazariyalar, tinchlikni o'rnatish konsepsiyasi, imperializmning tizimli nazariyasi va Qo'shma Shtatlar nazariyasi kabi nufuzli nazariyalar ishlab chiqilgan (The Peace Research Institute Oslo (PRIO); mafkuraviy xavfsizlik muammolari va ularning echimiga oid yangi bilimlarini olish va qo'llashga qaratilgan fanlararo, fundamental, qidiruv va ilmiy-amaliy tadqiqotlar, shuningdek, xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy, madaniy va mafkuraviy mazmundagi hamda tashqi siyosatda, jumladan MDH davlatlarida madaniy-mafkuraviy birlikni saqlashga qaralilgan nazariyalar ishlab chiqilgan (Центра исследования проблем безопасности Российской академии наук (ЦИПБ РАН); Sharqiy va Janubiy Osiyo, Afrika, Yevropa, Rossiya va Yevroosiyo, Yaqin Sharq mintaqalari bo'yicha ideologiya, demokratiya va boshqaruv, yadroviy ziddiyatlar, barqarorlik va geosiyosat kabi yo'nalishlarda milliy, mintaqaviy va giyosiyosiy ahamiyatga ega nazariyalar ishlab chiqilgan (Carnegie Endowment for International Peace).

Hozirda jahonda mafkuraga doir quyidagi masalalar: mafkura va anarxizm, konservatizm va neokonservatizm, liberalizm va neoliberalizm; ekstremizm va terrorizm mafkurasi; mafkuraning integrativ, manipulyativ, o'zgaruvchan va niqoblanish xususiyatlari; ekologiya va mafkura munosabati; mafkura sohasida milliy va umuminsoniy qadriyatlar; mafkura asosida milliy davlatchilikni rivojlantirish yo'llariga oid turli nazariya va konsepsiyalar ishlab chiqilmoqda.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. G'oya va mafkuraga oid qarashlar bundan 2500 ming yil ilgari shakllangan. Jumladan, deyarli shu vaqtda Qadimgi Yunoniston va Qadimgi Sharqda Mesopotamiya, Suriya, Misrda g'oya va mafkura tushunchalari, mafkuraning kishilar ongiga ta'sir etish imkoniyatlari o'rganilgan. Eng qadimgi g'oyaviy qarashlar afsona, doston, turli xalqlarning diniy ta'limotlarida aks etgan. Antik davr faylasuflari «G'oyalar dunyosi va soyalar dunyosi» ta'limotining asoschisi Platonning «Davlat», «Qonunlar», «Siyosatdon» va Aristotelning «Metafizika» «Kategoriyalar» «Ritorika» kabi asarlarida g'oya va mafkuraga oid qarashlar keltirilgan.

O'rta asr Sharq mutafakkirlari Forobiy¹ qarashlarida «g'oya» materiyaning o'ziga xos shakli», g'oyalar ikkilamchi ekanligi, Abu Rayxon Beruniy «Qadimgi

¹ Фараби. Комментарии к категориям Аристотеля // Избранные произведения мыслителей стран Ближнего и Среднего Востока. – М.: 1961, – 191-с.; Фараби. Китаб ал-Хуруф. – Душанбе: Илм, 1972, – 25-с.; Форобий Абу Наср. Рисолалар. – Тошкент: Фан, 1975. – 143 б.; Фаробий Абу Наср. Фозил одамлар шахри. – Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашр.,1993. – 174-б.

xalqlardan qolgan yodgorliklar»¹ asarida Oʻrta Osiyo halqlari tarixida mafkuraviy jarayonlar, Mahmud Qoshgʻariyning «Devoni lugʻatit turk»² asarida gʻoyalar mazmunan va shaklan milliy tillar taʼsirida farqlanishi, Aziziddin Nasafiy «Zubdat ul-haqoyiq»³ asarida olam gʻoyaviy jihatdan «olami gʻayb (yashirin) va (oshkor) olami shuhud»ga boʻlinishiga oid qarashlar keltirilgan. A.Navoiyning «Lisonut tayr», «Xamsa» asarlari⁴da gʻoyaviy barkamollik va unga erishish yoʻllari hamda Z.Boburning «Boburnoma»sida Oʻrta Osiyo va Hindistondagi millat va elatlar gʻoyaviy tafakkurining tahlillari keltirilgan⁵.

XX asr boshlarida M.Behbudiy, A.Avloniy, M.Abdurashidxonov va A.Fitrat kabi jadidchilik harakati nomoyondalari oʻz asarlarida jamiyat uchun milliy uygʻonish va milliy gʻoyaning ahamiyatini asoslaganlar.

Yevropa olimlari A.Destyut de Trasi⁶, A.Mingana⁷, J.S.Kanal⁸, A.Dj.Braun⁹, S.Xantington¹⁰, U.Blum¹¹ gʻoya va mafkuraning paydo boʻlishi, turlari va evolyusiyasi, umumiy qonuniyatlari va mafkuraning milliy, mintaqaviy va global taʼsir etish imkoniyatlarini ilmiy asoslaganlar. G.Valford¹² va G.Uolsbi¹³larning tadqiqot ishlari mafkura va ijtimoiy sohalar oʻrtasidagi farqni oʻrganishga qaratilgan. Charlz Blattberg¹⁴ mafkura, siyosiy mafkura va siyosiy falsafa oʻrtasidagi farqni ilmiy asoslagan. D.Minar¹⁵ mafkuraviy amaliyotning olti yoʻlini tavsiflagan. U.Mallinza¹⁶ esa, mafkura – toʻrt tayanch xususiyatga ega boʻladi, deb hisoblagan. Kommunistik mafkura nazariyotchilari K.Marks va F.Engel¹⁷ mafkurani «ilmiy boʻlmagan xarakterga ega»ligini asoslagan boʻlsa, V.Lenin¹⁸ mafkurani «ilmiy sotsializm yoki marksizm» sifatida tahlil qilgan.

¹ Абу Райхон Беруний. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар / А. Расулов тарж. Танланган асарлар. 1 – жилд. – Тошкент: Фан, 1968. – Б. 242-243.; Беруний Абу Райхон. Ҳиндистон. – Тошкент: Фан, 1965; Беруний Абу Райхон. Ҳикматлар – Тошкент: Ёш гвардия, 1973.

² Махмуд Қошғарий. Девони луғотит турк. – Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашр., 1996.

³ Азизиддин Насафий. Зубдат ул-ҳақойик. – Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашр., 1995.

⁴ Алишер Навоий. Муқаммал асарлар тўплами. 16-том. – Тошкент: Фан, 2000.

⁵ Захириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Тошкент: Юлдузча, 1989.

⁶ Антуан Дестют де Траси. Основы идеологии. – М.: Альма Матер, 2013. – 334 - с.; Новейший философский словарь. – М.: Наука, 1999. – 256 - с.

⁷ Mingana A. The Early Spread of Christianity in Central Asia and the Far East A New Document // Bulletin of the John Rylands Library. – Manchester, 1925. – vol. 9. – pt. 2. – P. 301.

⁸ Жан Сюрэ-Каналь. Африка Западная и Центральная. – М.: 1961. – 140 с.

⁹ Brown A.J. The mastery of the Far East. – New York: 1921. – P. 471.

¹⁰ С.Хантингтон. Неуправляемость демократии? Демократия 1990-х // Специальный выпуск журнала «Глобальные проблемы переходного периода». М.: 1993. – 16-с.

¹¹ Блум У. Смертоносный экспорт Америки – демократия. Правда о внешней политике США и многом другом / пер. с англ. – М.: Кучково поле, 2014. – 272-с.

¹² Walford G. Beyond Politics / An Outline of Systematic Ideology. Проверено 27 июня 2013. Архивировано из первоисточника 1 июля 2013.

¹³ Walsby Harold. The Domain of Ideologies / A Study of the Development and Structure of Ideologies. Проверено 27 июня 2013. Архивировано из первоисточника 1 июля 2013.

¹⁴ Blattberg Charles «Political Philosophies and Political Ideologies», in Patriotic Elaborations: Essays in Practical Philosophy, Monreal and Kingston: McGill-Queen's University Press, 2009.

¹⁵ Minar David. Ideology and Political Behavior (англ.). Проверено 27 июня 2013. Архивировано из первоисточника 1 июля 2013.

¹⁶ Mullins Willard. The Concept of Ideology: An Analysis and Evaluation (англ.). Проверено 27 июня 2013.

¹⁷ Маркс К., Энгельс Ф. Соч. Т. 3, – М.: 1955. – 25 с.

¹⁸ Владимир Ленин. Полное собрание сочинений в 55 томах. – Москва-Ленинград: Издательство политической литературы, 1963. Т.6. – 269-с.

Mafkura masalasi fransuz olimlari: Kabanis, Volney, Gar, Djerando, Lanselinlar tomonidan ham chuqur o'rganilgan bo'lib, biroq Napoleon Bonapart o'z davrida «istalgan har qanday mafkura agar u jamiyat rivojlanishi bilan bog'liq ehtiyojlar, qiziqish va qarashlarni ifoda etmas ekan, hech qanday mazmunga ega bo'lmaydi», deb hisoblaganligi uchun ham ularning qarashlari mavjud senzura ta'sirida qolib ketgan¹. Slavoy Jijek² tadqiqotlarida «mafkura – bu arvoq kabi ko'rinmas illyuziya bo'lib, chidab bo'lmas voqelikdan yashirinish uchun o'zimiz tomonimizdan o'ylab chiqariladi», deb xulosalangan.

MDH olimlari tomonidan mafkuraviy jarayonlarning falsafiy, ijtimoiy-siyosiy jihatlari hamda muayyan sub'ektiv mafkuralarga doir tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, V.Bartold³, K.Bendrikov⁴, Ye.Bertels⁵, L.Tugusheva⁶, B.Litvinskiy⁷lar o'z tadqiqot ishlarida Turkiston va boshqa sharq xalqlarining mafkuraviy qarashlarini falsafiy, tarixiy va ijtimoiy jihatdan tahlil etishgan. Ammo mazkur tadqiqot ishlarida o'z davrining xukmron mafkurasining ta'siri va pozitsiyasi yaqqol ustuvorlik kasb etgan. V.Lukonin⁸, Ye.Frolova⁹larning ilmiy tadqiqotlarida arab va eron halqlarining mafkuraviy tafakkuri tahlil etilgan bo'lsa, F.Konstantinov¹⁰, G.Lebon¹¹, V.Terner¹², R.Kuper¹³, A.Dvorkin¹⁴, A.Tuzikov¹⁵, M.Masaberidze¹⁶, V.Jaxirin¹⁷, L.Kizlasov¹⁸, R.Kon¹⁹, M.Ivanova²⁰larning tadqiqotlarida mafkuraning zamonaviy talqini, mafkuraviy simvol va rituallar, davlat va mafkura munosabati, zamonaviy sektalarning g'oyaviy ta'siri, targ'ibot jarayonida medianing roli hamda rangli inqiloblar va mafkura masalalari

¹ Россия: опыт национально-государственной идеологии. Под ред. И.А. Ильина. – М.: 1994. – 15-с.

² Жижек С. Возвышенный Объект Идеологии. – М.: Художественный журнал, 1999. – 52-с.

³ Бартольд В. Туркестан в эпоху мангольского нашествия. Том – 1,2. -С-Пб., М.: 1900.; Бартольд В. История культурной жизни Туркестана. – Ленинград: Издательство Академии наук СССР, 1927, – С.136-137.

⁴ Бендриков К.Е. Очерки по истории народного образования в Туркестане (1865-1924 гг.). – М.: 1961. – 45-с.;

⁵ Бертельс Е. Суфизм и суфийская литература. –М.: 1965.

⁶ Тугушева Л.Ю. Уйгурская версия биографии Сюань Цзяна. – М.: Наука, 1991.

⁷ Литвинский Б.А. Буддизм и буддийская культура Центральной Азии (древность) // Московское востоковедение. Очерки, исследования, разработки. – М.: 1997. – С. 57–59.

⁸ Луконин В.Г. Культура сасанидского Ирана / Иран в III-IV вв. Очерки по истории культуры. – М.: ИВЛ, 1969. – С. 74–81.

⁹ Фролова Е.А. Проблема веры и знания арабской философии. – М.: Наука, 1983.

¹⁰ Константинов Ф. Современные проблемы философии и задачи философской общественности // «Вопросы философии». 1972. – №1. – 35-с.

¹¹ Лебон Г. Психология народов и масс. – СПб., М.: 1896, – 159-с.

¹² Тернер В. Символ и ритуал. – М.: 1983.

¹³ Купер Р. Постмодерновое государство и мировой порядок // Полис. – № 6 – 1998. – 40 - с.

¹⁴ Дворкин А.Л. Сектоведение. – Нижний Новгород: 2002. – 66-с.

¹⁵ Тузиков А.Р. Масс-медиа: идеология видимая и невидимая / А.Р. Тузиков // Политические исследования. 2002. – № 5. – 131-с.

¹⁶ Мацаберидзе М. «Революция роз» и страны Южного Кавказа // Центральная Азия и Кавказ, № 2 (38). 2005. – С. 11-12.

¹⁷ Жахиринов В. Спасибо революциям // Журнал Евразия. 2005 г. декабрь. – С. 54.

¹⁸ Кызласов Л.Р. Символ креста у манихеев и сакральное пространство города Суяба на реке Чу // Вестник МГУ. История. – 2006. – сер. 8. – № 2. – С. 138–150; Кызласов Л.Р. Городская цивилизация Средней и Северной Азии. Исторические и археологические исследования. // М.: «Восточная литература». 2006. – С.314–322.

¹⁹ Конь Р.М. Введение в сектоведение. Нижегородская Духовная семинария. М.: 2008. – 496-с.

²⁰ Иванова М.В. Идеология потребительства как феномен современного либерально-демократического общества // Вестник ЧитГУ. 2018. – № 4 (49). – 18-б.

o'rganilgan. Mazkur tadqiqotchilarning ilmiy yondashuvlarida ham Rossiyaning tarixiy va zamonaviy mafkuraviy pozitsiyasi ustuvor bo'lib, mafkuraning umume'tirof etilgan falsafiy-metodologik xususiyatlariga e'tibor berilmagan.

Mamlakatimizda g'oya va mafkura fenomeni, ularning ilmiy-falsafiy, ijtimoiy-siyosiy mazmuni, tarixiy jihatlari hamda mafkuraviy tahdidlarning barqaror taraqqiyotiga ta'siri muammolari chuqur o'rganilgan bo'lib, mazkur masalalarning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy madaniy va ma'rifiy jihatlari O'zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimovning asarlari¹ hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning asar va nutqlarida² ilmiy asoslangan.

O'zbekiston ijtimoiy-gumanitar soha olimlari J.Tulenov, I.Karimov, N.Komilov, Q.Nazarov, A.Asqarov ilmiy izlanishlarida mustaqillik va mafkura masalalari, milliy istiqlol g'oyasining falsafiy asoslari, o'zbek xalqi kelib chiqishi va mentalitetining falsafiy va tarixiy jihatlari ochib berilgan³. Masalan, akademik J.Tulenov mafkura jamiyatdagi ijtimoiy guruh, siyosiy partiya, ommaviy harakatlar, jamoat tashkilotlari, davlat hokimiyatining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, diniy-falsafiy qarashlarining tizimlashtirilgan bilimlar yig'indisidan tashkil topishini ilmiy asoslagan bo'lsa, professor Ibrohim Karimov mafkuraga ijtimoiy mexanizm sifatida qarab, uning shaxsda imonni shakllantirish xususiyatiga katta baho bergan.

Mustaqillikni ilk yillaridayoq faylasuf olim Z.Davronov «Mafkura har bir shaxsda jamiyatga nisbatan loqaydlikni yo'qotadigan mafkura bo'lishi kerak»⁴ligini ta'kidlagan. S.Mamashokirov, Sh.Tog'aevlar mafkurani «a)

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. – Тошкент: Ўзбекистон, 1996. Ж.1. 364-б.; И.А.Каримов. Демократия – бош йўлимиз. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. 3-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 1996, – 8-б.; Каримов И.А. Биз келажакимизни ўз қўлимиз билан қураимиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997. Ж.7. 298-б.; Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт қафолатлари. 6-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 1998. – 42-б.; Каримов И.А. Жамиятимиз мафкураси халқни-халқ, миллатни-миллат қилишга хизмат этсин. – Тошкент: Ўзбекистон, 1998, – 11-б.; Каримов И.А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт – пировард мақсадимиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2000. Ж.8. – 176-б.; Каримов И.А. Инсон, унинг ҳуқуқ ва эркинликлари – олий қадрият. – Тошкент: Ўзбекистон. 2006. 14-жилд; Каримов И.А. Юксак маънавият энгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – 113-б.

² Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: О'zbekiston, 2021 йил. – 464-б.; Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг 2017 йил 22 декабрдаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2018. 80-б.; Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг 2017 йил 15 июнь куни Тошкент шаҳрида «Ижтимоий барқарорликни таъминлаш, муқаддас динимизнинг софлигини асраш – давр талаби» мавзусидаги анжуманда сўзлаган нутқи // <http://www.uza.uz>. 15.06.2017.; Ўзбекистон Республикаси Президентининг Ўзбекистон Республикаси мустақиллигининг 29 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи. <https://xs.uz/uz> (мурожаат қилинган сана 2020 йил 23 сентябрь); «Биз яратаётган янги Ўзбекистоннинг мафкураси эзгулик, одамийлик, гуманизм ғояси бўлади» Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2021 йил 19 январь куни ўтказилган видеоселектор йиғилишидаги нутқи. <https://xs.uz> (мурожаат қилинган сана 2021 йил 11 февраль).

³ Туленов Ж. ва бошқалар. Истиқлол ва тараққиёт мафкураси: мақсад ва йўналишлари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1993. – 12-б.; Каримов И. Имон ва Маслак тарихи. – Тошкент: 2010, Янги нашр нашр., – 42-б.; Н.Комилов. Тасаввуф ва бадий ижод // Ёшлик 1997, №8. – 73-б.; Назаров Қ. Мафкура. Республика Миллий ғоя ва мафкура илмий-амалий маркази. – Тошкент: Маънавият, 2014. – 104-б.; Назаров Қ. ва бошқалар. Миллий ғоя ва раҳбар масъулияти. – Тошкент: Фафур Фулом, 2007. – 643-б.; Асқаров А. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 2015. – Б. 67-90.

⁴ Ўзбекистоннинг миллий истиқлол мафкураси. Мақолалар тўплами. З.Давронов – Тошкент: Ўзбекистон. 1993. – Б. 56-57.

kishilarning talab, ehtiyoj-manfaatlari va ularni qondirish usul-vosita, mexanizmlari; b) g‘oyalarga bo‘lgan ishonch-e‘tiqodning namoyon bo‘lishidir»¹, – deb ta’kidlagan. Pedagog olim M.Quronov² ilmiy izlanishlarida milliy mafkuraning barkamol shaxsni tarbiyalashdagi ahamiyati, shaxs ma’naviyati va milliy tarbiya muammolari, sotsiolog olim M.Bekmurodov³ tadqiqotlarida milliy ma’naviyatimiz va mafkuramizning nazariy va tarixiy-tadrijiy masalalari, I.Ergashev⁴ asarlarida ijtimoiy-milliy onglilik, milliy g‘oyaning mohiyati, ma’naviyat hamda mafkuraning aloqadorligi, A.Ochildiyev⁵ tadqiqot ishida mustaqillik va shaxs ma’naviyatini shakllantirish, X.Jumaniyozov⁶ ilmiy izlanishlarida jamiyatda ma’naviy-mafkuraviy salohiyatni shakllantirish, O.Mamatov⁷ tadqiqotlarida milliy mafkurada vorisiylik muammolari ochib berilgan. Siyosatshunos olim Sh.Paxrutdinov tadqiqotlarida tahdid nazariyasi va uning mafkura bilan aloqador jihatlari, S.Otamurodov ilmiy izlanishlarida globallashtirish va milliy-ma’naviy xavfsizlik, Sh.G‘oyibnazarov ilmiy ishlarida milliy mafkura va ommaviy madaniyat masalasi, F.Ravshanov va M.Musayevlar o‘z tadqiqotlarida milliy ma’naviyatimizga tahdid soluvchi omillarni⁸ N.Shermuxamedova «Fan falsafasi» darsligida milliy yuksalishning ilmiy-metodologik jihatlari ochib bergan⁹.

Milliy g‘oya va mafkuraning millatlararo va dinlararo munosabatlardagi roli muammolari O.Musayev va O‘.Hasanboyevlarning tadqiqotlarida o‘tganilgan

¹ Мамашокиров С., Тоғаев Ш. Эркин ва фаровон ҳаёт қурилишининг ғоявий-мафкуравий масалалари. – Тошкент: Маънавият. 2007. – 10-б.

² Қуроноф М. Мафкуравий вазиятларни моделлаштириш – ғоявий тарбия воситаси. // Ж. Педагогик таълим. 2000. – №3. – Б. 22-23.; Қуроноф М. Мактаб маънавияти ва миллий тарбия. – Тошкент: Фан, 1995. – 118-б.; Қуроноф М. Мафкура, таъсирчанлик ва услуб. Воизга ёрдам: маъруза матни. – Тошкент: Маънавият, 2000. – 12-б.; Қуроноф М. Мафкуравий таҳдид ва ёшлар тарбияси. – Тошкент: Академиа, 2008. – 32-б.; Қуроноф М. Эзгу ғоялар рўёби. – Тошкент: Маънавият, 2011. – 157-б.; Қуроноф М., Жумаев Ш., Сафаров О. Тадбир самарадорлигининг ўн шарт. – Тошкент: Истиқлол, 2006. – 24-б.

³ Бекмуродов М. Мафкуравий зомби қилиш механизми. // Г. Маърифат. – Тошкент: 2007 йил 2 июнь; Бекмуродов М. Ўзбек менталитети – Тошкент: Ко'hi-nur, 2011. – 95-б.

⁴ Эргашев И., Худойбердиев Х., Қахрамонов А. Ўзбекистоннинг мустақил тараққиёти ва мафкуравий жараёнлар. – Тошкент: Ижод дунёси, 2002. – 31-б.; Эргашев И., Набиев Э., Қаюмов А. Ватан муқаддасдир. – Тошкент: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти, 2002. – 24-б.

⁵ Очилдиев А. Бугунги дунёнинг мафкуравий манзараси. – Тошкент: Ижод дунёси, 2002. – 31-б.; Очилдиев А. Глобallashtirish ва мафкуравий жараёнлар. – Тошкент: Муҳаррир. 2009. – 48-б.

⁶ Жуманиёзов Х.С. Мустақиллик ва миллий ривожланишнинг маънавий-мафкуравий салоҳиятини шакллантириш муаммолари. Сиёсий фанлар номзоди илмий даражасини олиш учун диссертация. – Тошкент: 2000.

⁷ Маматов О.В. Мустақиллик мафкурасини шаклланишида ворисийлик муаммоси. Фалсафа фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун диссертация. – Тошкент: 2002.

⁸ Пахрутдинов Ш. Таҳдид – ҳалокатли куч. – Тошкент: Академия, 2001.; Пахрутдинов Ш. Барқарор тараққиёт ва раҳбар масъулияти. – Тошкент: Академия, 2011.; Пахрутдинов Ш., Саидолимов С., Маматкулов Д. Миллий ғоя ва маънавият асослари. – Тошкент: Тафаккур, 2017.; Отамуродов С. Глобallashtirish ва миллий-маънавий хавфсизлик. – Тошкент: Ўзбекистон. 2013. – 297-б.; Ғойибназаров Ш. Оммавий маданият. – Тошкент: Ўзбекистон, 2012. – 212 -б.; Равшанов Ф. Миллий маънавиятга таҳдидлар. – Тошкент: Маънавият. 2013.; Мусаев М.Т. Глобallashtirish шароитида миссионерлик ва прозелитизмнинг жамият хавфсизлигига таҳдиди. Сиёсий фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун диссертация. – Тошкент: 2018.

⁹ Шермухамедова Н.А. Фан фалсафаси. – Тошкент: Ношир, 2017. – 360-б.;

bo'lsa¹, A.Muxtorov milliy g'oya takomilida ehtiyoj va manfaatlar birligini yoritishga bag'ishlangan doktorlik dissertatsiyasini², R.Norliyev milliy taraqqiyot va ma'naviy yuksalishning o'zaro aloqadorligi va ta'sir xususiyatlari mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini³, B.Saparov milliy g'oya tizimida milliy o'zlikni anglashning tuzulmaviy-funksional tahlili⁴, E.Mallayeva fuqarolarning siyosiy madaniyatini rivojlantirishning mafkuraviy omillari⁵ hamda J.Qo'chqorov milliy g'oya va demokratik o'zgarishlar dialektikasi bosqichlarining ijtimoiy-falsafiy tahlili⁶ mavzularida falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalarini himoya qilgan.

Xorij, MDH hamda mamlakatimiz olimlari tadqiqotlarida mafkuraviy jarayonlarga oid ko'plab ilmiy-nazariy tadqiqotlar mavjudligiga qaramay, ularda aynan muayyan xalq tarixiy taraqqiyotida mafkuraviy transformatsiya bilan bog'liq tadqiqotning mavjud emasligi, jumladan, hozirgacha o'zbek xalqi taraqqiyotida mafkuraviy jarayonlarni yaxlit ilmiy manzarasi yaratilmaganligi va tarixdagi mafkuraviy transformatsiya bosqichlarining davrlashtirilmaganligi hamda mamlakatimizni barqaror taraqqiyotni ta'minlashga xizmat qiladigan zamonaviy mafkuraviy tendensiyalarni aniqlashga doir dolzarb muammolarning saqlanib qolayotganligi mazkur sohada ilmiy tadqiqotlar olib borish zarurligini belgilamoqda.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining «2022-2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasini bajarish davrida mamlakatimizda ma'naviy-mafkuraviy xavfsizlikni ta'minlash masalalari» mavzusidagi ilmiy yo'nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi o'zbek xalqi taraqqiyotida mafkuraviy transformatsiya jarayonlarning yaxlit ilmiy manzarasini yaratish hamda milliy mafkurani takomillashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

o'zbek xalqi taraqqiyotida mafkuraviy transformatsiya bosqichlarini aniqlash, ularni davrlashtirish va mazkur davrlar mazmunini ilmiy jihatdan ochib berish;

¹ Мусаев О.Р. Milliy G'oya va millatlararo munosabatlar. – Toshkent: Ma'naviyat, 2021. – 471-б.; Хасанбоев Ў. Ўзбекистонда давлат ва дин муносабатлари: диний ташкилотлар, оқимлар мафкуравий курашнинг долзарб йўналишлари. – Тошкент: Тошкент ислом университети нашриёти, 2014. – 379-б.

² Мухторов А. Миллий ғоя тақомилида эҳтиёж ва манфаатлар бирлиги: Фалсафа фанлари доктори илмий даражасини олиш учун диссертация. – Тошкент: 2011. – 37- б.

³ Норлиев Р.И. Миллий тараққиёт ва маънавий юксалишнинг ўзаро алоқадорлиги ва таъсир хусусиятлари: Автореферат. фалсафа фан. ном. дисс. – Тошкент.: 2011. – 10-б.

⁴ Сапаров Б.Б. Миллий ғоя тизимида миллий ўзликни англашнинг тuzулмавий-функционал таҳлили. Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун диссертация. – Тошкент: 2019.

⁵ Маллаева Э.М. Фуқароларнинг сиёсий маданиятини ривожлантиришнинг мафкуравий омили: Сиёсий фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун диссертация. – Тошкент: 2020.

⁶ Қўчқоров Ж. Миллий ғоя ва демократик ўзгаришлар диалектикаси бошқичларининг ижтимоий-фалсафий таҳлили. Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун диссертация автореферати: – Бухоро: 2022.

tarixiy mafkuralarni ilmiy tahlil qilish asosida ularning mafkuraviy targ'ibot uslubi, usul va vositalarining mohiyatini asoslash;

transformatsiyalashuv davrlarida mafkuralarning tarixiy tajribalarini o'rganish asosida mafkuraviy targ'ibotning o'rtacha natijadorlik muddatini ochib berish;

mustaqillik yillaridagi mafkuraviy jarayonlarning ilmiy manzarasini yaratish hamda ushbu davrdagi mafkuraviy tahdidlarni tasniflash va ularga qarshi kurash yo'llarini asoslash;

yangilanayotgan jamiyatimiz va davr ehtiyojlariga mos keladigan «Yangi O'zbekiston» mafkurasining konsepsiyasi, uning bosh va asosiy g'oyalari hamda mafkuraviy tayanch yo'nalishlariga oid ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida o'zbek xalqi taraqqiyotidagi mafkuraviy transformatsiyalashuv jarayonlari hamda mafkuraviy rivojlanishning zamonaviy tendensiyalari olingan.

Tadqiqotning predmetini o'zbek xalqi taraqqiyotida mafkuraviy jarayonlar tarixi va transformatsiyasi hamda uning zamonaviy tendensiyalari mazmunining falsafiy-metodologik jihatlarini tadqiq qilish tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda ob'ektivlik, tarixiylik, voriysiylik, umumiy o'zaro aloqadorlik tamoyillari, umumiylikdan xususiylikga o'tish, analiz va sintez, huquqiy-me'yoriy hujjatlar, ilmiy-falsafiy, ijtimoiy-siyosiy adabiyotlarni tahlil qilish, kuzatish, tashxislash, qiyosiy tahlil, ilmiy dalillarni qayta ishlash va umumlashtirish, klassifikatsiyalash kabi tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

«O'zbek xalqi taraqqiyotida mafkuraviy jarayonlar transformatsiyasi va uning davrlari»ning xronologik bosqichlari mafkuraviy transformatsiyaga olib kelgan omillar, mafkuraviy inqirozlar hamda yangi mafkuralarning yuzaga kelish sabablarini umumlashtirilish va induktiv xulosalash asosida ishlab chiqilgan;

mafkuraviy transformatsiyaning latent – yashirin, sezilarsiz hamda revolyutsiya – oshkora, to'ntarish shaklida amalga oshadigan shakllari: progressiv, hamda regressiv transformatsiyani aniqlashtirish asosida mafkuraviy o'zgarishlar konsepsiyasining parallel transformatsiyasi ochib berilgan;

o'rtacha ellik yillik targ'ibot ikki avlodga ta'sir ko'rsatgani sababli tasavvuf g'oyalari, jadidchilik hamda kommunistik mafkura faoliyati orqali mafkuraning natijadorlik muddati ekanligi aniqlashtirilib, egoistik-asketizm g'oyalari inqirozga, jiddu jahd va dunyoviylik g'oyalari taraqqiyotga olib borishi asoslagan;

mafkuraviy jarayonlar asosida ikki: yuqori darajada kuchlanishga ega, kuch bilan namoyon bo'luvchi intensiv hamda sezilarsiz ta'sir strategiyasiga ega, «yumshoq kuch» xarakterli ekstensiv shakldagi zamonaviy ijtimoiy-regressiv mafkuraviy tendensiyalar ochib berilgan;

milliy mafkurani yangilanayotgan jamiyatimizga mos ravishda takomillashtirishga bo'lgan ehtiyoj sabab «Yangi O'zbekiston» mafkurasining ijtimoiy-falsafiy dialektikasi hamda uni legitimligini ta'minlovchi «falsafa, huquq, ilm-fan, islom dini va o'zbek tili, ta'lim va tibbiyot, mafkuraviy atribut va rituallar» mafkuraviy tayanch yo'nalishlar sifatida asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

o'zbek xalqi taraqqiyotida mafkuraviy jarayonlar transformatsiyalashuvi besh bosqichdan iborat davrlarga bo'linib, uning klassifikatsiyasi ishlab chiqilgan;

mafkura fenomenining mafkuraviy amaliyotda qo'llashga qaratilgan «g'oya demasdan turib, g'oyani singdirish», «eski mafkuralar ta'minotini uzib qo'yish», «g'oyaviy maslakdoshlarni moddiy rag'batlantirish», «g'oyaviy maslakdosh bo'lmaganlardan moddiy to'lov undirish», «ustoz-shogird an'anasini yo'lga qo'yish» usullari hamda «o'rtacha ellik yillik targ'ibot» – mafkuraning natijadorlik muddati ekaniga oid xususiyatlar asoslangan;

mafkuraviy amaliyotda mafkuraviy tahdidlar klassifikatsiya qilinib, ular intensiv va ekstensiv turlarga ajratilgan holda, intensiv shakldagi mafkuraviy tahdidlarga: diniy-ekstremizm; missionerlik va prozelitizm, ekstensiv shakldagi mafkuraviy tahdidlarga esa: demokratiya eksporti; «madaniy daraja» va «inson huquqlari» ekspansiyasi; «ommaviy madaniyat» kabi mafkuraviy tahdidlar kiritilib, ularning intensiv yoki ekstensiv mazmuni ochib berilgan;

yangilanayotgan jamiyatimiz uchun har tomonlama mos keladigan mafkura konsepsiyasini ishlab chiqish masalasida «Yangi O'zbekiston mafkurasi»ning bosh va asosiy g'oyalari hamda mafkuraviy tayanch yo'nalishlari: «falsafa», «huquq», «ilm-fan», «islom dini va o'zbek tili», «ta'lim va tibbiyot», «mafkuraviy atribut va rituallar»ga oid nazariy va amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'llanilgan yondashuv, usullar ilmiy-metodik asoslanilganligi, nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, muammoga falsafiy, siyosiy, metodologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar hamda o'zbek xalqi taraqqiyotida mafkuraviy jarayonlar transformatsiyasi va zamonaviy tendensiyalarini tadqiq etishga doir mahalliy va xorijiy tajribalarga tayanilganligi, keltirilgan tahlillar, ilmiy farazlar falsafa va ijtimoiy-gumanitar fanlarning maxsus metodlari vositasida aniqlanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati o'zbek xalqi taraqqiyotida mafkuraviy jarayonlar transformatsiyasi va uning zamonaviy tendensiyalariga oid «g'oya», «mafkura», «mafkuraviy kategoriya», «mafkuraviy muassasalar», «ideolog», «mafkuraviy kompetentlik», «mafkuraviy usul», «mafkuraviy vosita», «mafkuraviy transformatsiya», «progressiv transformatsiya», «regressiv transformatsiya», «mafkuraviy ta'minot», «tabu», «iste'molchilik mafkurasi», «yumshoq kuch», «pragmatik mafkura», «latent mafkura», «intensiv va ekstensiv shakldagi mafkuraviy tahdid» tushunchalari mohiyatining aniqlashtirilganligi; «kuchli sabr-toqat» va «jangovarlik ruhiyati» xususiyatlarining mazmuni hamda «o'rtacha ellik yillik targ'ibot – mafkuraning natijadorlik muddati» va «egoistik-asketizm g'oyalari – inqirozga, jiddu jahd va dunyoviylik g'oyalari – taraqqiyotga» olib borishini ko'rsatuvchi ijtimoiy qonuniyatlarga doir ilmiy xulosalardan sohaga oid ilmiy-nazariy ishlarni tayyorlashda foydalanilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati o'zbek xalqi taraqqiyotida mafkuraviy jarayonlar transformatsiyasi va uning zamonaviy tendensiyalarining

yaxlit ilmiy manzarasini yaratish asosida «O‘zbek xalqi taraqqiyotida mafkuraviy jarayonlar transformatsiyalashuvini davrlashtirish» amalga oshirilgani; mafkuralarning ijtimoiy hayotda amaliy isbotini topishiga to‘sqinlik qilgan omillar va hozirgi kunda ijtimoiy hayotda yuzaga kelayotgan salbiy g‘oyaviy tendensiyalarni aniqlangani; «Overton tuynigi» konsepsiyasining mazmuni va uning bosqichlari amaliy jihatdan ko‘rsatib o‘tilgani; davr ehtiyojlariga mos keladigan yangi mafkura konsepsiyasini yaratish hamda uning bosh va asosiy g‘oyalari bo‘yicha «Yangi O‘zbekiston g‘oyasi»ni bosh g‘oya hamda «Ilm-fan va Uchinchi Renessans g‘oyasi», «Odamiylik va ijtimoiy davlat g‘oyasi», «Qonuniylik va adolat g‘oyasi», «Tadbirkorlikni rivojlantirish va kambag‘allikni qisqartirish g‘oyasi», «Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot g‘oyasi»ni asosiy g‘oyalar sifatida belgilashga doir tavsiyalar ishlab chiqilgani; Yangi O‘zbekiston mafkurasini «amaliy mafkura» maqomiga ko‘tarilishida «falsafa», «huquq», «ilm-fan», «islom dini va o‘zbek tili», «ta’lim va tibbiyot» hamda «mafkuraviy atribut va rituallar» mafkuraviy tayanch yo‘nalishlar sifatida belgilash lozimligini amaliy jihatdan asoslab berilgani hamda boshqa erishilgan natijalar ijtimoiy hayotda mafkura ishining mazmunini o‘zgartirish, sifatini ko‘tarish va mafkuraviy targ‘ibotda samarali natijalar qo‘lga kiritilishiga xizmat qilish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ilmiy tadqiqot natijalari asosida:

«O‘zbek xalqi taraqqiyotida mafkuraviy jarayonlar transformatsiyasi va uning davrlari»ning xronologik bosqichlari mafkuraviy transformatsiyaga olib kelgan omillar, mafkuraviy inqirozlar hamda yangi mafkuralarning yuzaga kelish sabablarini umumlashtirish va induktiv xulosalash asosida ishlab chiqilgan takliflardan O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligi huzuridagi Yoshlar ishlari agentligida foydalanilgan (Yoshlar ishlari agentligining 2023-yil 6-apreldagi 4-13-21-876-son ma’lumotnomasi). Natijalar Agentlik faoliyati orqali o‘zbek xalqi taraqqiyotida mafkuraviy jarayonlar transformatsiyasi va uning davrlariga oid yaxlit ilmiy manzara shakllanishiga xizmat qilgan.

mafkuraviy transformatsiyaning latent – yashirin, sezilarsiz hamda revolyutsiya – oshkora, to‘ntarish shaklida amalga oshadigan shakllari: progressiv, hamda regressiv transformatsiyani aniqlashtirish asosida mafkuraviy o‘zgarishlar konsepsiyasining parallel transformatsiyasiga doir takliflardan O‘zbekiston Yoshlar ittifoqining 2022-2023-yilgi yillik ish rejalarini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi Markaziy kengashining 2023-yil 3-iyuldagi 04-13/550-son ma’lumotnomasi). Natijalar O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi faoliyatida progressive hamda regressiv transformatsiyalar mazmun-mohiyati asosida ma’naviy va g‘oyaviy targ‘ibot mexanizmlarni takomillashtirishga xizmat qilgan;

o‘rtacha ellik yillik targ‘ibot ikki avlodga ta’sir ko‘rsatgani sababli tasavvuf g‘oyalari, jadidchilik hamda kommunistik mafkura faoliyati orqali mafkuraning natijadorlik muddati ekanligi aniqlashtirilib, egoistik-asketizm g‘oyalari inqirozga, jiddu jahd va dunyoviylik g‘oyalari taraqqiyotga olib borishiga doir takliflaridan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazining 2023-yil uchun chora-tadbirlar dasturining III yo‘nalishida belgilangan «G‘oya va mafkura masalasi hamda ilm-

fan va ma'rifat targ'iboti» 15-bandini «Geosiyosiy va mafkuraviy jarayonlarni muntazam o'rganish, xatarli tahdidlarga qarshi samarali g'oyaviy kurash olib borish» mavzusidagi targ'ibot ishlarini o'tkazishda foydalanilgan (Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2023-yil 23-martdagi 02-22/229-son ma'lumotnomasi). Natijalar o'rtacha ellik yillik targ'ibot – ikki avlodga ta'sir ko'rsatgani sababli mafkuraning natijadorlik muddati ekanli bo'yicha aniqlangan ilmiy dalillardan kelib chiqib, Markazning istiqboldagi faoliyat rejasini shakllantirilishiga xizmat qilgan.

mafkuraviy jarayonlar asosida ikki: yuqori darajada kuchlanishga ega, kuch bilan namoyon bo'luvchi intensiv hamda sezilarsiz ta'sir strategiyasiga ega, «yumshoq kuch» xarakterli ekstensiv shakldagi zamonaviy ijtimoiy-regressiv mafkuraviy tendensiyalarga oid takliflardan O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi «O'zbekiston teleradiokanali davlat muassasasi»da foydalanilgan (O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasining 2023-yil 10-apreldagi 10-28-451-son ma'lumotnomasi). Natijalar O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasining ma'naviy va g'oyaviy targ'ibot faoliyatida regressiv mafkuraviy tendensiyalarga nisbatan keng xalq ommasida mafkuraviy immunitetni shakllantirish ishlarini nazariy va amaliy jihatdan takomillashtirilishiga xizmat qilgan;

milliy mafkurani yangilanayotgan jamiyatimizga mos ravishda takomillashtirishga bo'lgan ehtiyoj sabab «Yangi O'zbekiston» mafkurasining ijtimoiy-falsafiy dialektikasi hamda uni legitimligini ta'minlovchi «falsafa, huquq, ilm-fan, islom dini va o'zbek tili, ta'lim va tibbiyot, mafkuraviy atribut va rituallar» mafkuraviy tayanch yo'nalishlar sifatida asoslangan takliflaridan O'zbekiston «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi faoliyatida ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishdagi mafkuraviy targ'ibot ishlarida foydalanilgan (O'zbekiston «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi Markaziy kengashining 2023-yil 3-iyuldagi 02/02-40-son ma'lumotnomasi). Natijalar ma'naviy va g'oyaviy targ'ibot ishlarida yangilanayotgan jamiyatimizga mos keladigan milliy mafkuraning ijtimoiy-falsafiy dialektikasi hamda uning mafkuraviy tayanch yo'nalishlarni aniqlashtirish, ijtimoiy-siyosiy faol yangi avlod yoshlarini tarbiyalashga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari jami 10 ta, shundan 4 ta xalqaro va 6 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 24 ta ilmiy-uslubiy ishlar, jumladan, 1 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini e'lon qilish uchun tavsiya etilgan nashrlarda 13 ta maqola, jumladan, 9 tasi respublika va 4 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, uning hajmi 217 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning «**Kirish**» qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, xorijiy ilmiy-tadqiqotlarning sharhlari, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, ob'ekti, predmeti, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, ularning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy etilishi, nashr ishlari hamda dissertatsiya tuzilishi asoslangan.

Dissertatsiyaning «**G'oya va mafkura tushunchalari hamda ularning ilmiy-nazariy tahlili**», deb nomlangan birinchi bobida g'oya va mafkura tushunchalarining ilmiy-kategorial tahlili, mafkuraning mazmuni va uning tarkibiy tuzilishi, o'zbek xalqi taraqqiyotida mafkuraviy jarayonlar transformatsiyasi va ularni klassifikatsiyalash masalalari yoritilgan.

Ma'lumki, muayyan narsa va hodisa mohiyatini aniqlashda avvalo u haqida ma'lumot beruvchi ta'riflarni chuqur tahlil etish qo'yilayotgan muammo echimini topishda qulay yo'l hisoblanadi. Shunga ko'ra, amalga oshirilgan ilmiy tahlillarda g'oya tushunchasi «g'oya» – bu haqiqiy borliq, yashaydigan dunyomiz esa, uning in'ikosi (Platon); «g'oya» materiyaning o'ziga xos shakli, ular bir-birisiz mavjud bo'lolmaydi (Aristotel); narsalar birlamchi, «g'oya»lar ikkilamchi, ular aqlda muayyan narsalarning mavhumlashtirish natijasida paydo bo'ladi (Farobiy); «g'oya»lar haqiqat yoki buzib ko'rsatilgan voqelikning aksi hisoblanadi (K.Marks va F.Engels); kabi mazmunlarni ifodalaydi. Mazkur tushuncha bo'yicha bergan mualliflik ta'rifimizga ko'ra, «*g'oya deganda, ijtimoiy xarakter va manfaatni ifodalovchi, o'z davri uchun yangi va dolzarb bo'lgan, inson ruhiyatiga kuchli ta'sir etadigan tafakkur mahsuli tushuniladi*». Bizningcha, g'oyalar qanday tur va shaklga mansub bo'lishidan qat'iy nazar, qachongina mafkura tarkibidan o'rin olib, u bilan sinxron harakatlansagina, keng ko'lamlı ta'sir kuchiga ega bo'ladi.

Tadqiqot ishida keltirilgan mualliflik ta'rifimizga ko'ra, mafkura – bu *muayyan ijtimoiy guruh, sinf yoki xalqning dunyoqarashini ifodalaydigan ilmiy-falsafiy, ijtimoiy-siyosiy yoki boshqa (masalan, diniy) tomondan tizimga solingan g'oyalar, tamoyil va kategoriyalar yig'indisi hamda ularni jamiyat hayotiga tatbiq etish yo'llari, usul va vositalari majmuasi hisoblanadi.*


Mafkuralar o'zining xususiy darajasida muayyan o'ziga xoslik: nazariya va amaliyotda nomutanosibliklar, bir-birini takrorlamaydigan belgilarga ega bo'lishi bilan bir qatorda, inson ongi va qalbi uchun kurashda umumiy qoidalarga amal qiladi. Xususiy mafkuralar (islom va kommunistik mafkura)ning umumiy belgilari tahlil etilganda, mafkuralarning davriyligi yoki mazmunidan qat'iy nazar tarkibiy tuzilishi bir xil ekani ma'lum bo'ldi. Tadqiqot ishida nazariy va qiyosiy tahlillar asosida barcha mafkuralarga xos bo'lgan umumiy tarkibiy tuzilish aniqlandi. Mazkur tarkibiy tuzilish: birinchisi, muayyan tizimga solingan (ilmiy, falsafiy, siyosiy, milliy, diniy va boshqa tomondan asoslangan) g'oyalar, kategoriyalar, tamoyillar majmui; ikkinchisi, mafkuradagi g'oyalar, kategoriyalar va tamoyillarni amaliyotga tatbiq etuvchi sub'ektiv omillar (mafkuraviy muassasalar va ideologlar); uchinchisi, g'oya va mafkuraviy kategoriyalarni amaliyotga tatbiq etish jarayonida qo'llanilgan yo'llar, usullar va vositalardir (1-rasm).

Mafkura uch tarkibiy qismdan iborat bo'lsa-da, aslida u bo'linmas, yaxlit mexanizm hisoblanib, har bir qism boshqa bir qism bilan uzviy bog'liq. Shubhasiz, mafkuraning birinchi tarkibiy qismi uning nazariy-fundamental asosi hisoblanadi. Birinchi tarkibiy qismdagi muayyan tizimga solingan g'oyalar, kategoriyalar va tamoyillar mafkura mohiyatini ochib beruvchi asosiy elementlar bo'lib, ular qanday mohiyat (bunyodkorlik yoki vayronkorlik)ga ega bo'lsa, u real hayotda ana shunday mohiyatda namoyon bo'ladi. Mafkuraning shakllanish jarayoni birinchi tarkibiy qismdan boshlanadi. Uni shakllanishida nafaqat zamonaning bir guruh shaxslari, balki o'tmishdagi olim va mutafakkirlarning qarashlari ham rol o'ynashi mumkin.



1-rasm. Mafkuraning tarkibiy qismlarining yaxlit ko'rinishi

Birinchi tarkibiy qismidagi g'oya, kategoriya va tamoyillar bir-biridan alohida tushunchalar hisoblanadi hamda ular amaliyotda o'ziga xos vazifalarni bajaradi. G'oyalar mafkura tarkibidan bosh va asosiy g'oyalar ko'rinishida o'rin egallaydi. Har qanday bosh g'oya yakka shaxs, guruh, millat yoki xalq tomonidan strategik maqsad va manfaatning anglanishi natijasida vujudga keladi. Bosh g'oya shakllanib, mafkura tarkibidan o'rin olgach, u o'zida asosiy mafkuraviy maqsadni aks ettiradi. Mafkura strukturaviy jihatdan bosh g'oya atrofida quriladi va uni amalga oshirishga yo'naltiriladi. Mafkura tarkibidagi asosiy g'oyalar mazmuniga ko'ra, bosh g'oyaga nisbatan torroq bo'lib, ular bosh g'oyaning alohida qirralari, muayyan sohalar mazmunini ifodalaydi hamda o'zaro bog'langan holda, bosh g'oyani mazmunan boyitishga xizmat qiladi (2-rasm).



2-rasm. Mafkura tarkibidagi bosh va asosiy g'oyalarning joylashuvi

Asosiy g'oyalarning mafkuraviy amaliyotdagi roli katta bo'lib, ular mazmunan torroq, biroq aniq bir soha bo'yicha kishilarda ishonchni uyg'otishga xizmat qilib, xosil qilingan kichik ishonchdan yuqoriga, ya'ni bosh g'oyaga nisbatan umumiy ishonchni shakllanishini ta'minlab beradi.

Mafkuraning birinchi tarkibiy qismida g'oyalar tizimidan tashqari, mafkuraviy kategoriyalar ham o'rin egallaydi. Mualliflik ta'rifimizga ko'ra, «*mafkuraviy kategoriyalar bu metodologik va dunyoqarash mazmuniga ega bo'lgan, mafkuraviy bilish hamda mafkuraviy amaliyot natijasida vujudga kelib, g'oyaviy tus olgan va o'zaro bir-biri bilan qonuniy bog'langan asosiy tushunchalar hisoblanadi*».


Mafkuraviy kategoriyalar kundalik ong darajasida emas, nazariy ong darajasida vujudga kelganligi bilan ham oddiy tushunchalardan farqlanadi. Mafkuraviy kategoriyalar bir-biri bilan qonuniy, mutanosib holda bog'lanadi va birgalikda inson, jamiyat hamda ijtimoiy voqelikni dixotomik va yaxlit tarzda ifodalaydi. Ular tasniflanganda uch turga bo'linadi:

1. Ideal (pozitiv) obrazlarni ifodalovchi kategoriyalar;
2. Noideal (negativ) obrazlarni ifodalovchi kategoriyalar;
3. Holat va jarayonlarni ifodalovchi kategoriyalar.


Mafkuraviy kategoriyalar barcha tarixiy va zamonaviy mafkuralar tarkibida mavjud bo'ladi (3- va 4-rasmlar).

Mafkuraning birinchi tarkibiy qismi avvalo, mafkuraviy maqsadni anglagan muallif(lar)ning ilmiy-falsafiy, ijtimoiy-siyosiy asarlarida aks etadi hamda ular mafkuraning nazariy qurilish ierarxiyasida birinchi o'rinda turadi va mafkuraviy amaliyot uchun nazariy-metodologik asos hisoblanadi.

Ikkinchi pog'onada, mafkura muallif(lar)ining qarashlarini chuqur anglagan va ularga maslakdosh bo'lgan ijodkorlarning ilmiy-falsafiy, ijtimoiy-siyosiy asarlari turadi. Bu turdagi asarlarda mafkuraviy maqsadni ifodalovchi bosh va asosiy g'oyalar hamda kategoriyalar turli shakllarda sharxlanib, xalqchillashtirilgan holda keng ommaga etkaziladi. Mafkuraning bosh va asosiy g'oyalari hamda kategoriyalari faqat ilmiy-falsafiy yoki ijtimoiy-siyosiy adabiyotlardan o'rin egallaydi, deyish noto'g'ri hisoblanardi. Mafkura fundamental jihatdan to'g'ri ishlab chiqilgan bo'lsa, uning nazariyasi uchinchi va to'rtinchi manbaalar: badiiy adabiyot (nasr va nazm), kino, teatr, multfilm, qo'shiqchilik va rassomchilik san'ati namunalari hamda internet saytlari, ijtimoiy tarmoqlar va boshqa kundalik axborot manbalaridan ham o'rin egallashi mumkin.



3-rasm. Islom mafkurasining kategoriyalari



4-rasm. Kommunistik mafkura kategoriyalari

Mafkuraning ikkinchi tarkibiy qismi, mafkura nazariyasini amaliyotga tatbiq etuvchi sub'ektiv omillar (mafkuraviy muassasalar va ideologlar) hisoblanadi.


Mafkuraviy muassasalar deganda, *moddiy tovarlar ishlab chiqarmaydigan, asosan, inson ongini shakllantirish yoki uni yanada rivojlantirish bilan shug'ullanadigan, faoliyati bevosita inson ongiga yo'naltirilgan ijtimoiy institutlar* tushunilsa, ideolog deganda, *muayyan mafkura uchun birlamchi sub'ekt bo'lgan, o'z mafkurasining maqsadi, bosh va asosiy g'oyalari hamda kategoriyalarining mohiyatini anglagan va ularga ishongan hamda o'zi ishongan g'oyalarni boshqa insonlarda ham shakllantira olish malakasiga ega shaxslar* tushuniladi. Ideologlar mafkuraviy amaliyotda asosiy rol o'ynab, mafkura nazariyasini mafkuraning ob'ekti bo'lgan, ya'ni mafkuraviy maqsadni to'la tushunib etmagan va mafkura nazariyasida ko'rsatilayotgan hayotiy harakat yo'nalishiga ega bo'lmagan kishilar ongiga etkazish vazifasini bajaradilar. Mazkur jarayonda ideolog uchun mafkuraviy kompetentlik juda zarur bo'lib, mafkuraviy kompetentlik deganda – *bu shaxsning mafkura sohasida chuqur bilimga egaligi va muayyan mafkura bo'yicha kuchli mafkuraviy immunitetning shakllanganligi hamda o'z mafkurasidagi g'oya va qarashlarni boshqa insonlarda ham shakllantira olishini ko'rsatuvchi xususiyat* tushuniladi.

Mafkuraning uchinchi tarkibiy qismiga g'oya va mafkuraviy kategoriyalarni amaliyotga tadbiiq etish jarayonida qo'llanilgan usullar va vositalar kiradi. Mafkuraviy usul deganda, «*g'oya demasdan turib, g'oyani singdirish jarayoni*» tushunilsa, mafkuraviy vosita deganda, *mafkura nazariyasini mafkura sub'ektlaridan uning ob'ektlariga etib borishi uchun dastak bo'lib xizmat qiladigan narsalar* tushuniladi.

Mazkur bobda mafkuraviy transformatsiya (*transformatio* – qayta o'zgarish, qayta hosil bo'lish) jarayonlari ham tahlil etilib, o'zbek xalqi tarixiy taraqqiyotida ularning ikki xili: progressiv va regressiv shakllari mavjud bo'lgani aniqlandi. Progressiv transformatsiyada – *muayyan hududdagi gegemon mafkura, tashqaridan kirib kelgan mohiyati yaqin keladigan yangi g'oyalardan g'oyaviy ozuqa sifatida foydalanadigan jarayon. Bu jarayon latent (yashirin, sezilarsiz) holatda amalga oshadi, uning natijasida gegemon mafkura o'z mavqeini saqlab qoladi hamda mazmun va ta'sir hududini yanada kengaytiradi.* Regressiv transformatsiya *revolyutsiya shaklida amalga oshadi, uning natijasida muayyan hududdagi gegemon mafkura tashqaridan kirib kelgan mafkura tomonidan mutlaq inkor etiladi va butunlay yangi g'oyaviy sfera yuzaga keltiriladi.*

Amalga oshirgan ilmiy izlanishlar natijasida, mafkuraviy jarayonlarning klassifikatsiyalash masalasi bo'yicha yangi, o'zbek xalqi taraqqiyotidagi mafkuraviy jarayonlarga oid ma'lumotlarni tartibga keltiruvchi, ilk mafkuraviy jarayonlardan hozirga qadar bo'lgan jarayonlarni tizimlashtirish imkonini beradigan «*O'zbek xalqi taraqqiyotida mafkuraviy jarayonlar transformatsiyalashuvi va ularning davrlari*»ga oid ilmiy xulosa taklif etildi (5-rasm).

Mazkur davrlashtirish asosida o'zbek xalqi taraqqiyotida mafkuraviy jarayonlar genezisi va transformatsiyasiga oid bilimlardagi bo'shliqlarni aniqlash hamda mafkura sohasiga oid nazariy va amaliy ishlarni yanada rivojlantirish imkoniyati vujudga keldi.



5-rasm. O'zbek xalqi taraqqiyotida mafkuraviy jarayonlar transformatsiyalashuvi va ularning davrlari

Dissertatsiyaning «**O'zbek xalqi taraqqiyotining g'oyaviy-mafkuraviy asoslari va ularning tarixiy evolyusiyasi**», deb nomlanuvchi ikkinchi bobida xalqimiz tarixida ilk g'oyaviy-mafkuraviy jarayonlarning vujudga kelishi hamda milliy g'oyaning shakllanishi, yurtimizga islom dini va mafkurasining kirib kelishi va rivojlanishi hamda Chor Rossiyasi bosqini va SSSR davridagi mafkuraviy yondashuvlar mazmuni ochib berilgan.

Ilmiy izlanishlar asosida yurtimiz hududida ilk g'oyaviy-mafkuraviy jarayonlarni shakllanish davri miloddan avvalgi 100-ming yillarga borib taqalishi, bu davrning boshlang'ich nuqtasi o'rta paleolit (miloddan avvalgi 100 – 40-ming yillar)ga taalluqli «Teshiktosh odami»ning dafn etilishi bilan bog'liq, degan ilmiy xulosaga kelindi. Mazkur xulosa yurtimizdagi Zarautsoy, Siypantosh, Sarmishsoy, Bironsoy va Ilonsoy kabi qoyatosh rasmlarining g'oyaviy mazmuniga oid faktlar bilan mustahkamlandi. Tadqiqot ishi ilk g'oyaviy-mafkuraviy qarashlar asosan totemizm, animizm va fetishizm shaklida bo'lgani, ular nazariyada mifologik dunyoqarashga, amaliyotda esa «tabu»larga tayanganini ko'rsatdi.

Xalqimiz tarixida milliy g'oyaning shakllanishi muammosi Zardushtiylik hamda Shomoniylilik (Ko'k-Tangri) mafkuralarini batafsil tadqiq etishga undadi. Olingan ilmiy natijalar asosida miloddan avvalgi 1-ming yillik boshlaridan, milodiy VIII asrgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oluvchi «Milliy xususiyat va

milliy g'oyaning shakllanish davri» to'g'risidagi ilmiy faraz ilgari surildi. Mazkur davrda sug'orma dehqonchilik targ'iboti ustuvor bo'lgan Zardushtiylik g'oyalari ta'sirida «*kuchli sabr-toqat*», chorvadorlik turmush tarziga asoslangan Shomoniylilik (Ko'k-Tangri) mafkurasi ta'sirida esa, «*jangovarlik ruhiyati*» xalqimizda milliy xususiyat sifatida qaror topgani ma'lum bo'ldi. Ushbu davrda Zardushtiylik hamda Shomoniylilik (Ko'k-Tangri) mafkuralaridan tashqari, ellinistik, xristianlik, buddaviylik va moniylik g'oyalari ham mavjud bo'lgani aniqlanib, bu davrda yurtimizda hech qaysi mafkura monopol darajada o'rnatilmagani, ijtimoiy-siyosiy hayotda g'oyaviy plyuralizm yuqori darajada shakllanganligini ko'rsatdi.

VIII asr boshlaridan – XIX asr o'rtalarigacha bo'lgan davrda O'rta Osiyoga islom dini va mafkurasining kirib kelishi, ushbu jarayonda «*eski mafkuralar ta'minotini uzib qo'yish*», «*g'oyaviy maslakdoshlarni moddiy rag'batlantirish*», «*g'oyaviy maslakdosh bo'lmaganlardan moddiy to'lov undirish*», «*ustoz-shogird an'anasini yo'lga qo'yish*» kabi mafkuraviy usullardan foydalanish orqali arablar tomonidan yurtimizdagi mafkuraviy jarayonlar tarixida birinchi bor mafkuraviy monopollashuv amalga oshirilgani ma'lum bo'ldi.

Ilmiy izlanishlar o'z vaqtida islom g'oyalarini targ'ib etuvchilar tomonidan ijtimoiy adolatga intilingani, bu esa, «*g'oyani ijtimoiy hayotda amaliy isbot topish*» hodisasini yuzaga keltirib, targ'ib etilayotgan g'oyaga nisbatan mahalliy xalq ishonchini uyg'otganini isbotladi. Undan tashqari, Zardushtiylik ta'sirida sug'orma dehqonchilik madaniyatini targ'ib etilishi natijasida shakllangan «*kuchli sabr-toqat*» xususiyati hamda chorvadorlik turmush tarziga asoslangan Shomoniylilik mafkurasi ta'sirida shakllangan «*jangovarlik ruhiyati*» xalqimiz tomonidan islom g'oyalarini tez qabul qilinishida asosiy rol o'ynaganligi ma'lum bo'ldi. IX asrda islom mafkurasida katta g'oyaviy ziddiyatlar yuzaga kelganligi aniqlanib, bu hodisa o'z vaqtida kuchli g'oyaviy kurash orqali ijtimoiy hayotda g'oyalar xilmaxilligiga chek qo'yilgani, hukmron islom mafkurasi uchun tashqi raqobatchi qolmagach ichki g'oyaviy kurashda *mutaziliylik*, *mutakallimlik* va *tasavvufni* shakllanishi natijasida ijtimoiy hayotda murakkab diniy-g'oyaviy muhit yuzaga kelganini ko'rsatdi. Mazkur davrda ayrim *tasavvuf tariqatlarida* islom g'oyalarini tushunish va targ'ib etishda *irrotsionalik* hamda *egoistik-asketizm* ustuvor bo'lgani aniqlanib, tadqiqot ishida tarkidunyochilik g'oyasi usuvor bo'lgan Yassaviya tariqati hamda jiddu jahd va dunyoviylikka urg'u berilgan Naqshbandiya tariqati misolida «*egoistik-asketizm g'oyalari – inqirozga, jiddu jahd va dunyoviylik g'oyalari – taraqqiyotga*» olib borishini ko'rsatuvchi ijtimoiy qonun to'g'risida ilmiy faraz ilgari surildi.

XIX asr boshlarida O'rta Osiyoda siyosiy tomondan uch mustaqil davlatning mavjudligi, iqtisodiy tomondan xalqaro savdo aloqalarining suv yo'llariga ko'chishi natijasida ularni xalqaro savdo munosabatlaridan chetda qolgani, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmalar qoloq shaklda qolib ketgani va eng xavfli mazkur davrdagi mafkuraviy omillar mazmunida hali ham irrotsionalizm va egoistik-asketizm ustuvor ekani aniqlanib, bu omillar 1847-1885-yillar oralig'ida Rossiya imperiyasi tomonidan Turkiston o'lkasini bosib olinishiga qulay vaziyatni

vujudga keltirganini ko'rsatdi. Bu davr tadqiqot ishida o'zbek xalqi taraqqiyotida mafkuraviy jarayonlarning to'rtinchi – «Mustamlakachilik, kommunistik va ateistik mafkuraning kirib kelishi va hukmronligi davri» deb nomlanib, unda Rossiya imperiyasi tomonidan mahalliy aholini g'oyaviy tobe qilish maqsadida: «mahalliy xalqning an'anaviy ta'limini zamonaviylashtirishiga yo'l qo'ymaslik», «xristiancha rus sivilizatsiyasini olib kelish uchun rus-tuzem maktablari faoliyatini yo'lga qo'yish», «mahalliy zodagon va musulmon ruhoniylarni jamiyatga nisbatan moddiy-ma'naviy kuch hamda ta'sirini kamaytirish», «mustamlakachi hukumatga tayanch bo'ladigan maslakdosh qatlamni shakllantirish», «rus millatiga mansub aholini Turkistonga ko'chirish siyosatini amalga oshirish» kabi mafkuraviy usullar qo'llanilgani ma'lum bo'ldi. Ilmiy tahlillar ushbu davrdagi mafkuraviy jarayonlarda Jadidchilik harakati yuzagan kelgani, ular ikki g'oyaviy frontda, birinchisi, irratsionalizm va egoistik-asketizm mazmunidagi hamda ikkinchisi xristiancha rus madaniyatini targ'ib etishga asoslangan g'oyalar frontida kurash olib borganini ko'rsatdi.

XX asr boshlarida Chor Rossiyasidagi inqiroz uning hududlarida bolsheviklar va kommunistik mafkura hukmronligini o'rnatilishiga olib keldi. Mafkuraviy jarayonlarda kommunistik mafkura to'liq monopol mafkuraga aylandi. Bu jarayonda jinoyatchi bo'lmasa-da, g'oyaviy maslakdosh bo'lmaganlar «yot unsur» sifatida jismonan yo'q qilindi. Ayni vaqtda nomenklaturaning g'oyaviy sodiqligi ham doimiy nazoratga olinishi natijasida bu g'ayritabiiy ravishda ijtimoiy-siyosiy hayotda korrupsiya va jinoyatchilikni bartaraf etilishiga olib keldi. Undan tashqari, II Jahon urushi barcha xalqlarga zarar keltirgan bo'lsa-da, kommunistik mafkura uchun turli millat va elatlarni yagona g'oyaga birlashtirish yo'lida foyda keltirdi. O'z vaqtida kommunistik mafkura zamonaning barcha innovatsiyalari (radio, televedeniya kabilar)dan keng foydalangani hamda mafkuraviy targ'ibotga kompleks yondashgani ma'lum bo'ldi. Mazkur ilmiy natijalar mafkuraviy amaliyotda innovatsiyalardan samarali foydalanish hamda mafkura ishiga kompleks yondashish asosida har bir jamiyatda yagona mafkuraviy sferani yaratishi mumkinligi to'g'risida ilmiy xulosa chiqarishga imkon yaratdi.

«Mustaqillik: milliy g'oyaning tiklanishi, mafkuraviy ziddiyatlar va ularning tasnifi», deb nomlangan uchinchi bobda mustaqillik yillaridagi mafkuraviy jarayonlar, Milliy istiqlol mafkurasining mazmun-mohiyati, ushbu davrda yuzaga kelgan mafkuraviy tahdidlar: intensiv hamda ekstensiv shakldagi mafkuraviy tahdidlarning mazmuni va g'oyaviy kurash usullari tahlili keltirilgan.

Ma'lumki, XX asr oxirilariga kelib, kommunistik mafkuraning ijtimoiy hayotda o'z isbotini topmagani yaqqol ko'rina boshlagan. Buning sabablari sifatida:

– kommunistik mafkura «mutlaq haqiqat» da'vosini ilgari surgani va shu pozitsiya uni nazariy va amaliy rivojlanish yo'llarini to'sib qo'ygani;

– kommunistik mafkurada millat omili hisobga olinmagani, ittifoq hududidagi millatlarning tili, tarixi va madaniyatiga bepisandlik bilan qaralib,

baynalmilallik g'oyasi ostida rus tili va madaniyati targ'ib etilishi natijasida aksariyat millatlarda o'z-o'zini asrash instinkti kuchayib borgani;

– kommunistik mafkura uzoq tarixiy tajriba va katta auditoriyaga ega diniy mafkuralarni butunlay inkor etgani, natijada tanlov imkoniyati paydo bo'lishi bilan keng xalq ommasi yana diniy ildizlariga qayta boshlagani;

– kommunistik mafkura nazariy jihatdan keng xalq ommasi: ishchilar, dehqonlar, ziyolilar mafkurasi bo'lib ko'ringani, amalda esa, ularning hayotini yaxshilamagani bois, saksoninchi yillarning o'rtalariga kelib, u faqat kichik ijtimoiy guruh – kommunistik partiya nomenklaturasining mafkurasi bo'lib qolganini keltirish mumkin. Kommunistik mafkuraning ijtimoiy hayotda o'z isbotini topmagach ittifoq hududida uzoq yillar bostirib kelingan milliy g'oya fenomenini qayta uyg'onishi yuz berdi va bu davr xalqimiz taraqqiyotidagi mafkuraviy jarayonlar transformatsiyasida tub burilish yasab, 1991-yildan – hozirga qadar bo'lgan «Mustaqillik, milliy g'oyaning qayta uyg'onishi va takomillashuvi davri»ni boshlab berdi.

Mustaqillik arafasi va uning dastlabki yillarida milliy g'oya nafaqat ijtimoiy mafkura balki siyosiy mafkura sifatida ham bo'y ko'rsatdi. Biroq bu davrda, milliy g'oya qariyb uch ming yillik taraqqiyotimizda faqat diniy asoslar bilan bog'liq holda rivojlanib kelgani bois, uni dunyoviy asoslarda rivojlantirish uchun tarixiy, ijtimoiy-siyosiy tajriba etishmadi. Bu holat siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-mafkuraviy tub burilish pallasida mamlakatimiz uchun milliy birlik zarur bo'lgan bir vaqtda ijtimoiy harakat va siyosiy partiyalar faoliyatida yaqqol ko'zga tashlandi. Ayni vaqtda ijtimoiy harakat va siyosiy partiyalarning muxoliflik harakatidan tashqari, sobiq Ittifoq davrida uzoq vaqt davom etgan ateistik siyosat natijasida diniy ma'rifat zaiflashgan, biroq diniy bilimlarga ehtiyoj ortgan vaziyatda yurtimizda diniy-ekstremistik mafkuralar faoliyati ham kuzatila boshlandi.

Mazkur davr xalqimiz va hukumatimiz faoliyatida regressiv g'oyalarga qarshi kurashda muayyan tajriba shakllanganligini ko'rsatdi. Shunga qaramay, ayrim mafkuraviy masalalarda kamchiliklarga ham yo'l qo'yildi. Jumladan, bu davrda sotsialistik g'oyalar qadrsizlangan bir vaziyatda sotsial-demokratik asosdagi hamda hali ijtimoiy asosi shakllanib ulgurmagan leberal-demokratik asosdagi partiyalarning legallashuvi qo'llab-quvvatlandi. Biroq, ijtimoiy-siyosiy hayotdagi mafkuraviy bo'shliqlarni to'ldirishi kutilgan mazkur partiyalar o'z g'oyalarining ijtimoyilashmagani sababli ko'zlagan natijani bermadi. Bu davrda davlat bosh islohotchi sifatida mafkuraviy jarayonlarda ustuvorlikni ta'minlash uchun Milliy istiqlol mafkurasi nazariy va amaliy jihatdan qo'llab-quvvatlandi. Jumladan,


– 1994-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni bilan Respublika «Ma'naviyat va ma'rifat» jamoatchilik markazi tashkil etildi. 2006-yilga kelib, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashi negizida Respublika Ma'naviyat targ'iboti markazi hamda Milliy g'oya ilmiy-amaliy markazi davlat tashkilotlari sifatida ish boshladi;

– 2001-yilda Milliy istiqlol mafkurasining nazariyasi «Prezident Islom Karimov asarlari, ma’ruza va nutqlari, chiqishlaridagi ma’naviy-ma’rifiy mavzuda bildirgan fikrlari asosida» O‘zbekiston Faylasuflari milliy jamiyatining ishchi guruhi tomonidan ishlab chiqildi;

– 2001-yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoyishi bilan «Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» fani bo‘yicha ta’lim dasturini yaratish va respublika ta’lim tizimiga joriy etish ishlari amalga oshirildi.

Biroq, mazkur ishlarni amalga oshirilishida davlat va mafkura munosabatlarining huquqiy jihatlari (O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 12-va-41-moddalari) e’tiborga olinmadi yoki vaziyat taqozosi nuqtai nazaridan ushbu huquqiy normalar chetlab o‘tildi.

Ilmiy tahlillar shuni ko‘rsatdiki, bu davrda Milliy istiqlol mafkurasida nazariyasida ham kamchiliklar ko‘zga tashlandi. Jumladan, uning falsafiy asosi hamda amaliyot uchun zarur bo‘lgan mafkuraviy kategoriyalar masalasi hal qilinmadi (6-rasm).



6-rasm. Milliy istiqlol mafkurasida nazariyasining umumiy ko‘rinishi
(rasmda so‘roq belgisi Milliy istiqlol mafkurasida mafkuraviy kategoriyalar mavjud emasligiga ishora sifatida keltirilgan)

Mafkura nazariyasi va amaliyotidagi nomukamallik jamiyatda yuqori darajada kuchlanish bilan nomoyon bo‘luvchi – intensiv hamda keng qamrovli, uzoq muddatga yo‘naltirilgan – ekstensiv shakldagi mafkuraviy tahdidlarni yuzaga keltirdi. Tadqiqotda mafkuraviy tahdidning intensiv shakliga: «diniy-ekstremizm», «missionerlik va prozelitizm» kabilar, ekstensiv shakliga esa, «yumshoq kuch» xarakteridagi «demokratiya eksporti», «inson huquqlari» ekspansiyasi, «ommaviy madaniyat» kabilar kiritilib, ularning g‘oyaviy mazmuni, yuzaga kelish sabablari hamda mazkur mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurash zaruriati ilmiy asoslandi.

Izlanishlar davomida ekstensiv shakldagi mafkuraviy tahdidlar shakllanishiga xizmat qiluvchi nazariya va amaliyotlar mavjudligi, jumladan, «*Overton tuynugi*» konsepsiyasining olti bosqichdan iborat ta'sir strategiyasi ilmiy tahlil etildi va uning ishlash prinsiplari ko'rsatib berildi. Mazkur ilmiy dalillar asosida hozirda milliy manfaatlarimizni o'zida ifoda etadigan, nazariy va amaliy jihatdan bugungi davr talablariga mos keladigan yangi mafkurani yaratish zarurligi ilmiy asoslandi.

Dissertatsiyaning «**Yangi O'zbekiston taraqqiyotining mafkuraviy asoslari va uni rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari**», deb nomlangan to'rtinchi bobida Yangi O'zbekiston taraqqiyotida mafkuraviy jarayonlar va ularning zamonaviy tendensiyalari hamda jamiyatning barqaror taraqqiyotini ta'minlashda milliy mafkura omiliga oid ilmiy tahlil, taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.

Mazkur bobda «Mustaqillik, milliy g'oyani qayta uyg'onishi va takomillashuvi davri»ning 2017-yildan – hozirga qadar bo'lgan ikkinchi bosqichidagi mafkuraviy jarayonlarda:

- tashqi siyosatda O'zbekiston yaqin va uzoqdagi hamkorlariga shartsiz do'stlik qo'lini cho'zayotgani, qo'shni davlatlar bilan munosabatlar o'zining yangi bosqichiga kirgani;

- siyosiy boshqaruvning asosiy tayanchi bo'lgan kuch tizimlar faoliyati tanqidiy ko'rib chiqilgani;

- siyosiy yoki mafkuraviy motivlar bilan qamalgan mahbuslar qamoqdan ozod qilinib, dindorlarning «qora ro'yxat»lari tugatilgani;

- vazirlik va davlat tashkilotlari faoliyatida optimallashtirish boshlangani;

- axborot erkinligi amalda ta'minlana boshlagani, erkin jurnalistika va blogerlik faoliyati ommalashib, internet saytlari va ijtimoiy tarmoqlar mafkuraviy jarayonlar «oynasi»ga aylangani aniqlandi.

Mavjud tahlillar jamiyat hayotda ijtimoiy-siyosiy liberallashtirish natijasida salbiy g'oyaviy tendensiyalar, ya'ni «*pansovetizm*», «*diniy fundamentalizm*», «*separatizm*» va «*iste'molchilik mafkurasi*» kabilar yuzaga kelganini ko'rsatdi. Jumladan, hozirda mamlakatimizdagi mafkuraviy jarayonlar fonida pansovetizm propagandasi:

- umumiy til birligi (rus tili ustuvorligi)ni saqlash;

- ittifoq davridagi siyosiy-mafkuraviy bayramlarni yakdillikda o'tkazishga intilish;

- ittifoq davri tarixiy xotirasini tiklash harakatlarida nomoyon bo'layotganini ko'rsatmoqda. Undan tashqari yana bir mafkuraviy tahdid – diniy fundamentalizm tendensiyasi yana uyg'onayotgani, bu jarayon asosan ijtimoiy hayotda «*umumta'lim maktablarida «Evolyusiya nazariyasi»ni o'qitish*», «*qadimchilar va neojadidlar bahsi*», «*maktab formasi va unga qarshi mulohazalar*» kabi masalalar shaklida namoyon bo'layotgani aniqlanib, tadqiqot ishida ularni oldini olishga qaratilgan ilmiy taklif va tavsiyalar berildi.

Yuqoridagi tendensiyalar qatorida bugungi kunda jamiyatimizda separatizm tendensiyasining faollashuvi, jumladan u 2022-yil 1 va 2-iyul kunlari Qoraqalpog'istonda bo'lib o'tgan ommaviy tartibsizliklar fonida kuzatilgani,

jumladan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidan 70 va 74-moddalardagi «suveren» va «referendum» jumllarini olib tashlanishi eng yaxshi echim ekani, biroq o‘sha kunlardagi murakkab vaziyatni bartaraf etish zaruriyatidan kelib chiqib, separatizm uchun potensial xavf, ya’ni yuqoridagi normalar bilan bog‘liq huquqiy «tuynuk» bartaraf etilmay qolingani ilmiy asoslab berildi.

Tadqiqotda hozirda ko‘zga tashlanayotgan mafkuraviy tendensiyalardan yana biri bu iste’molchilik mafkurasi ekani aniqlanib, u global xarakterga ega ekani, xavfli jihati cheklangan resurslar makonida cheksiz ehtiyojlarni targ‘ib etishi, insonni ma’naviy rivojlantirishdan ko‘ra moddiy ehtiyojlar tobesiga aylantirishi, unga qarshi iqtisodiy, siyosiy yoki huquqiy mexanizmlar bilan kurashib bo‘lmasligi, unga qarshi kurash jarayonida qonun va axloqqa asoslangan iste’molchilikni rag‘batlantirish muhim hisoblanishi ko‘rsatildi.

Ijtimoiy hayotdagi salbiy g‘oyaviy tendensiyalar nafaqat bugungi kundagi liberallashuv sharoiti tufayli balki Milliy istiqlol mafkurasining nazariy va amaliy muammolari sababli ham yuzaga kelgani, endilikda, ushbu xavf-xatarlar o‘zining maqbul doirasidan chetga chiqib, bevosita tahdidga aylanmasdan avval mafkuraviy ishni tubdan takomillashtirish, nazariy va amaliy jihatdan latent bo‘lgan va ijtimoiy hayot bilan kuchli bog‘langan mafkurani yaratish lozimligini ko‘rsatdi.

Shunga ko‘ra, tadqiqotda yangilanayotgan jamiyatimiz uchun «Yangi O‘zbekiston» mafkurasining zarurligi to‘g‘risidagi xulosalar O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev tomonidan ilgari surilgan fikrlarga tayanilgan holda ilmiy asoslandi. Jumladan, tadqiqotda Yangi O‘zbekiston mafkurasining strukturasi: bosh va asosiy g‘oyalari, mafkuraviy tayanch yo‘nalishlari bo‘yicha: Yangi O‘zbekiston mafkurasi uchun «Yangi O‘zbekiston g‘oyasi»ni bosh g‘oya hamda «*Ilm-fan va Uchinchi Renessans g‘oyasi*», «*Odamiylik va ijtimoiy davlat g‘oyasi*», «*Qonuniylik va adolat g‘oyasi*», «*Tadbirkorlikni rivojlantirish va kambag‘allikni qisqartirish g‘oyasi*», «*Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot g‘oyasi*»ni asosiy g‘oyalar sifatida belgilash va shular asosida yangi mafkura konsepsiyasini yaratish taklifi berildi (7-rasm).



7-rasm. «Yangi O‘zbekiston» mafkurasining bosh va asosiy g‘oyalari

Bulardan tashqari, mazkur bobda amalga oshirilgan ilmiy izlanish natijalari Yangi O‘zbekiston mafkurasini «*amaliy mafkura*» maqomiga ko‘tarish, buning uchun mafkura nazariyasi va amaliyotida «*falsafa*», «*huquq*», «*ilm-fan*», «*islom dini va o‘zbek tili*», «*ta’lim va tibbiyot*» hamda «*mafkuraviy atribut va rituallar*»ni mafkuraviy tayanch yo‘nalishlar sifatida belgilash lozimligini ko‘rsatdi.

XULOSA

O‘zbek xalqi taraqqiyotida mafkuraviy jarayonlar transformatsiyasi va uning zamonaviy tendensiyalarini aniqlash, davr ehtiyojlariga mos ravishda mafkuraviy ishlarni takomillashtirish, imkoniyatlarni ilmiy-nazariy va qiyosiy tadqiq etish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Insoniyat tarixida sivilizatsiyalarning vujudga kelishi, barqaror rivojlanish yoki tanazzulning tub mohiyati g‘oya va mafkura atalmish ijtimoiy ong mahsuliga borib taqaladi. Mualliflik ta’rifimizga ko‘ra, g‘oya bu «*ijtimoiy xarakter va manfaatni ifodalovchi, o‘z davri uchun yangi va dolzarb bo‘lgan, inson ruhiyatiga kuchli ta’sir etadigan tafakkur mahsuli*», mafkura esa, «*muayyan ijtimoiy guruh, sinf yoki xalqning dunyoqarashini ifodalaydigan ilmiy-falsafiy, ijtimoiy-siyosiy yoki boshqa (masalan, diniy) tomondan tizimga solingan g‘oyalar, tamoyil va kategoriyalar yig‘indisi hamda ularni jamiyat hayotiga tatbiq etish yo‘llari, usul va vositalari majmuasi*» hisoblanadi;

2. Jahon taraqqiyotida har bir jamiyat rivoji bilan parallel ravishda mafkuralar transformatsiyasi ham yuz berib boradi. Mafkuraviy transformatsiya progressiv yoki regressivev shaklda bo‘ladi. Progressiv transformatsiyada *muayyan hududdagi gegemon mafkura tashqaridan kirib kelgan mohiyati yaqin keladigan yangi g‘oyalardan ozuqa sifatida foydalanadi. Bu jarayon, odatda, latent (yashirin, sezilarsiz) shaklda amalga oshadi va natijada gegemon mafkura o‘z mavqeini saqlab qoladi hamda mazmun va ta’sir hududini yanada kengaytirib boradi. Regressivev transformatsiya g‘oyaviy revoliyutsiya shaklda amalga oshadi, uning natijasida muayyan hududdagi gegemon mafkura tashqaridan kirib kelgan mafkura tomonidan mutlaq inkor etiladi va butunlay yangi g‘oyaviy sfera yuzaga keltiriladi;*

3. O‘zbek xalqi taraqqiyotida mafkuraviy jarayonlar evolyusiyasida besh bosqichda mafkuralar transformatsiyasi amalga oshgani aniqlandi va ular quyidagicha davrlashtirildi:

1) Ilk g‘oyaviy-mafkuraviy jarayonlarning vujudga kelish davri (miloddan avvalgi 100 – 1-ming yillargacha);

2) Milliy xususiyat va milliy g‘oyaning shakllanish davri (miloddan avvalgi 1-ming yillik boshlari – milodiy VIII asrlargacha);

3) Islom dini va mafkurasining kirib kelishi hamda rivojlanish davri (VIII asr boshlaridan – XIX asr o‘rtalarigacha);

4) Mustamlakachilik, kommunistik va ateistik mafkuraning kirib kelishi va hukmronligi davri (XIX asr o‘rtalaridan – 1990-yillarga qadar);

5) Mustaqillik, milliy g'oyaning qayta uyg'onishi va takomillashuvi davri (1991-yildan – hozirga qadar).

4. Xalqimiz taraqqiyotida ilk g'oyaviy-mafkuraviy jarayonlarning boshlang'ich nuqtasi o'rta paleolit (miloddan avvalgi 100 – 40-ming yillar)ga taalluqli «Teshiktosh odami»ning dafn etilishi bilan bog'liqligi to'g'risida ilmiy faraz yaratildi va mazkur davrdagi g'oyaviy-mafkuraviy qarashlar, asosan, totemizm, animizm va fetishizm shaklida bo'lgani, ular nazariyada mifologik dunyoqarashga, amaliyotda esa «tabu»larga tayangani aniqlandi;

5. Mafkuraviy jarayonlar transformatsiyasining ikkinchi – «Milliy xususiyat va milliy g'oyaning shakllanish davri»da sug'orma dehqonchilik targ'iboti ustuvor bo'lgan Zardushtiylik g'oyalari ta'sirida xalqimizda «kuchli sabr-toqat»; ko'chmanchi va chorvadorlik turmush tarziga asoslangan Shomoniylar (Ko'k-Tangri) mafkurasi ta'sirida esa «jangovarlik ruhiyati» milliy xususiyat sifatida qaror topgani to'g'risidagi ilmiy faraz ilgari surildi. Undan tashqari, mazkur davrdagi mafkuraviy jarayonlarda ellinistik, xristianlik, buddaviylik va moniylik g'oyalarining ham mavjud bo'lgani, xalqimiz tarixida milodiy VIII asrgacha hech qaysi mafkura monopol darajada o'rnatilmagan – degan ilmiy xulosaga olib keldi;

6. Xalqimizning mafkuraviy jarayonlar tarixida mafkuraviy monopollashuv VIII asr boshlarida – islom dini va mafkurasining kirib kelishi bilan bog'liqligi aniqlanib, ushbu jarayonda g'oyalar xilma-xilligiga chek qo'yilgani va hukmron mafkura uchun tashqi raqobatchi mafkura qolmagach, IX asrlarga kelib, ichki g'oyaviy kurash (mutaziliy va mutakallim hamda tasavvuf)ni yuzaga keltirganini ko'rsatdi. Islom g'oyalarni tushunish va targ'ib etishda ayrim tasavvuf tariqatlari mazmunida irratsionallik hamda egoistik-asketizm, ayrimlarida esa, jiddu jahd va dunyoviylik g'oyalari ustuvor bo'lgani aniqlanib, «egoistik-asketizm g'oyalari – inqirozga, jiddu jahd va dunyoviylik g'oyalari – taraqqiyotga» olib borishini ko'rsatuvchi ijtimoiy qonuniyat to'g'risida ilmiy faraz ilgari surildi;

7. Tadqiqot ishida mafkuraviy amaliyotda «o'rtacha ellik yil» muddati o'ziga xos xususiyatga ega ekaniga e'tibor qaratildi. Jumladan, zohidlik, tarkidunyochilik g'oyalarini ustuvor bo'lgan Yassaviya (Ahmad Yassaviy, 1041/1103-1166/67) tariqatini Movaraunnahrda yoyilishidan o'rtacha ellik yil o'tib, Xorazmshohlar davlatini mo'g'ullar tomonidan (Chingizxon 1219-yil yurish boshlagan) bosib olinishi, jiddu jahd va dunyoviylik g'oyalariga urg'u berilgan Naqshbandiya (Bahovuddin Naqshband (1318-1389) tariqati yoyilishidan o'rtacha ellik yil o'tib, Amir Temur va Temuriylar harakati natijasida Movarunnahrda kuchli markazlashgan davlatning vujudga kelishi «o'rtacha ellik yillik targ'ibot – mafkuraning natijadorlik muddati» – degan ilmiy xulosaga kelishimizga asos bo'ldi;

8. Mafkuraviy jarayonlar tarixining ma'lum davrlarida irratsionallik va egoistik-asketizmning ustuvor bo'lganligi XIX asr o'rtalariga kelib Rossiya imperiyasi tomonidan Turkistonni bosib olishi uchun qulay vaziyatni vujudga keltirganini ko'rsatdi. Rossiya imperiyasi mustamlakachiligining «xristiancha rus sivilizatsiyasi» targ'iboti boshlangandan (bu o'rinda ham yuqoridagi ilmiy xulosa o'z tasdig'ini topib) «o'rtacha ellik yil» o'tib, Jadidchilik harakati vujudga keldi.

O‘z vaqtida Jadidlar ikki g‘oyaviy frontda, ya’ni birinchisi – irratsionalizm va egoistik-asketizm mazmunidagi g‘oyaviy frontda hamda ikkinchisi – mustamlakachilarning xristiancha rus madaniyati targ‘ibotiga asoslangan g‘oyaviy frontlarda kurash olib borishgani kuzatildi;

9. XX asr boshlaridagi Milliy uyg‘onish hamda Chor Rossiyasining markaziy hududlarida avj olgan g‘oyaviy kurash uni butunlay tugatilishiga olib keldi hamda uning merosiga mafkura masalasida yanada tajovuzkor bo‘lgan bolsheviklar hukumati ega chiqdi. Bolsheviklar nazariyada sotsialistik ta’limotlarga tayandi. K.Marks va F.Engels asarlari kommunistik mafkura uchun ilmiy-falsafiy manba bo‘ldi. Amaliyotida esa, «mutlaq haqiqat» da’vosi ilgari surildi va g‘oyaviy maslakdosh bo‘lmaganlar ta’qib qilindi. Mafkura ishiga kompleks yondashuv va mafkuraviy targ‘ibotda o‘z davrining barcha innovatsiyalaridan keng foydalanilishi natijasi o‘laroq, shakllana boshlagan davridan (bu o‘rinda ham yuqoridagi ilmiy xulosa o‘z tasdig‘ini topib) «o‘rtacha ellik yil» o‘tib, kommunistik mafkura ulkan geografik hududda yagona mafkuraviy sferani yarata oldi;

10. XX asr oxirlariga kelib, kommunistik mafkuraning ijtimoiy hayotda o‘z amaliy isbotini topishi tabora qiyinlashib bordi. Bunga kommunistik mafkurada:

– «mutlaq haqiqat» da’vosi ilgari surilgani va shu pozitsiya uning nazariy va amaliy rivojlanish yo‘llarini to‘sib qo‘ygani;

– millat omili hisobga olinmagani, Ittifoq xududidagi ko‘p sonli millatlarning tili, tarixi va madaniyati oyoq osti qilinib, baynalmilallik g‘oyasi fonida rus tili va madaniyati targ‘ib etilgani va buning natijasida aksariyat millatlarda o‘z-o‘zini asrash instinkti kuchayib borgani;

– uzoq tarixiy tajriba va katta auditoriyaga ega diniy mafkuralar butunlay inkor etilgani, natijada tanlov imkoniyati paydo bo‘lishi bilan keng xalq ommasi yana diniy ildizlariga qayta boshlagani;

– nazariy jihatdan keng xalq ommasi: ishchilar, dehqonlar, ziyolilar mafkurasi bo‘lib ko‘ringani, amalda esa ularning turmush sharoitlari yaxshilamangani sabab bo‘ldi.

11. Kommunistik mafkuraning ijtimoiy hayotda o‘z isbotini topmagani yurtimiz hududida uzoq yillar bostirib kelingan milliy g‘oya fenomenini qayta uyg‘onishiga olib keldi. Milliy g‘oya xalqimizning qariyb uch ming yillik taraqqiyotida faqat diniy asoslar bilan bog‘liq holda rivojlanib kelgani bois, mustaqillikning dastlabki yillarida uni dunyoviy asoslarda rivojlantirish uchun tarixiy, ijtimoiy-siyosiy tajriba etishmadi. Mazkur holat ijtimoiy harakat va siyosiy partiyalar faoliyatida radikal muholifatchilik hamda diniy-ekstremistik mafkuralar faoliyatini yuzaga kelishida ko‘rindi;

12. Mustaqillik yillarida g‘oyaviy bo‘shliqni to‘ldirish maqsadida hukumat tomonidan Milliy istiqloq mafkurasi nazariy va amaliy jihatdan qo‘llab-quvvatlandi. Buning natijasida mafkuraviy jarayonlar nisbatan barqarorlashgan bo‘lsa-da, biroq mafkuraviy ishdagi nazariy va amaliy kamchiliklar sabab, jamiyatda intensiv va ekstensiv shakldagi mafkuraviy tahdidlarning mavjudligi saqlanib qolaverdi;

13. 2017-yildan boshlab yurtimizdagi mafkuraviy sferada katta o'zgarishlar yuz berdi. Ochiqlik siyosati va liberallashtirish sabab g'oyaviy plyuralizm amalda ta'minlana boshlandi. Biroq mazkur o'zgarishlar va Milliy istiqbol mafkurasining ijtimoiy hayotda o'z isbotini topmaganligi ushbu davrda «pansovetizm», «diniy fundamentalizm», «separatizm» va «iste'molchilik mafkurasi» kabi salbiy g'oyaviy tendensiyalarni yuzaga keltirdi;

14. Mazkur davrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev tomonidan yangilanayotgan jamiyatimiz uchun «Yangi O'zbekiston» mafkurasini yaratish to'g'risida fikr ilgari surildi. Tadqiqot ishida ushbu metodologik fikrga tayanilgan holda Yangi O'zbekiston mafkurasi uchun «Yangi O'zbekiston g'oyasi»ni bosh g'oya hamda «Ilm-fan va Uchinchi Renessans g'oyasi», «Odamiylik va ijtimoiy davlat g'oyasi», «Qonuniylik va adolat g'oyasi», «Tadbirkorlikni rivojlantirish va kambag'allikni qisqartirish g'oyasi», «Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot g'oyasi»ni asosiy g'oyalar sifatida belgilash va shular asosida yangi mafkura konsepsiyasini yaratish bo'yicha ilmiy xulosalar berildi.

Yuqorida keltirilgan xulosalar o'zbek xalqi taraqqiyotida mafkuraviy jarayonlar transformatsiyasi va uning zamonaviy tendensiyalariga oid quyidagi tavsiyalarga ham e'tibor qaratish lozimligini ko'rsatadi:

- Yangi O'zbekiston mafkurasining nazariya va amaliyotida falsafiy bazis sifatida dualizm ta'limotiga tayanish;
- mafkura va huquq sohalari o'rtasida dialektik aloqadorlikni o'rnatish orqali Yangi O'zbekiston mafkurasini legitim mafkuraga aylantirish;
- ilm-fanni tubdan isloh etish hamda uni mafkura bilan sinxron harakatini ta'minlash orqali Uchinchi Renessansni yuzaga keltirish;
- mafkuraviy amaliyotda islom dinining g'oya va qadriyatlariga suyanish;
- o'zbek tilining nafaqat davlat tili, balki siyosat, ilm-fan, biznes hamda internet tili darajalariga ko'tarishga erishish;
- ta'lim va tibbiyot sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish;
- Yangi O'zbekiston mafkurasi uchun mos keladigan (davlat bayrog'i, davlat madhiyasi, ijtimoiy munosabatlarda ilk bog'lovchi tushuncha kabi) masalalar bilan bog'liq mafkuraviy atribut va rituallarni yaratish.

Yuqoridagi takliflar ushbu sohani yanada rivojlantirish yo'lida ilmiy izlanish olib borishni rejalashtirayotgan tadqiqotchilar uchun tadqiqot yo'nalishlarini aniqlab olishlariga asos bo'lib xizmat qiladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019.F.01.14 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАЦИОНАЛЬНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ
УЗБЕКИСТАНА**

**УНИВЕРСИТЕТ ОБЩЕСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

МАМАТКУЛОВ ДАВЛАТЖОН МАХАМАТЖОНОВИЧ

**ТРАНСФОРМАЦИЯ ИДЕОЛОГИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ В
РАЗВИТИИ УЗБЕКСКОГО НАРОДА И ЕЕ СОВРЕМЕННЫЕ
ТЕНДЕНЦИИ**

09.00.06 – История и методология идей

**АВТОРЕФЕРАТ
ДИССЕРТАЦИИ НА СОИСКАНИЕ УЧЁНОЙ СТЕПЕНИ ДОКТОРА
ФИЛОСОФСКИХ НАУК (DSc)**

Ташкент – 2023

Тема докторской диссертации (DSc) по философским наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при министерство высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № B2023.1.DSc/Fall164.

Докторской диссертации выполнена в Университете общественной безопасности Республики Узбекистан.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) на веб-сайте Национального университета www.nuu.uz и на Информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:

Мусаев Одил Рахматович
доктор философских наук, профессор

Официальные оппоненты:

Саифназаров Исмаил Саифназарович
доктор философских наук, профессор

Эргашев Ибодулла
доктор политических наук, профессор

Уроқов Дилшод Жамолитдинович
доктор исторических наук (DSc), доцент

Ведущая организация:

Ташкентский государственный педагогический университет имени Низами

Защита диссертации состоится « ___ » _____ 2023 года в _____ часов на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2019.F.01.14 по присуждению ученых степеней при Национально университете Узбекистана. (Адрес: 100174, город Ташкент, ВУЗгородок, улица Университетская, дом 4. Здание факультета Социальных наук, комната 511. Тел.: (+99871) 227-12-24, факс: (+99871)246-02-24; E-mail: info@nuu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Национального университета Узбекистана (зарегистрирована за № ____). Адрес 100174, город Ташкент, ВУЗгородок, улица Университетская, дом 4. Тел.: (+99871) 227-12-24, факс: (+99871) 246-02-24; E-mail: info@nuu.uz).

Автореферат диссертации разослан « ___ » _____ 2023 года
(Протокол реестра рассылки № ____ от « ___ » _____ 2023 года).

Н.А.Шермухамедова
Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней,
доктор философских наук, профессор

М.Т.Хидиров
Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней,
доктор философии по философии (PhD)

Ж.Ё.Мавлонов
Председатель научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор политических наук, доцент

ВВЕДЕНИЕ (аннотация докторской (DSc) диссертации)

Актуальность и востребованность темы диссертации. Философские, исторические, социально-политические причины прогресса или упадка цивилизаций в мире показывают, что они зависят от такого продукта общественного сознания, как идея. Эта ситуация относится к развитию сегодняшней эпохи наряду с древними цивилизациями, а благодаря особенностям глобализации идея становится еще более эффективной и действенной силой, чем в предыдущие эпохи. Вот почему содержание идеологических процессов, их трансформация и закономерности развития, их учет в условиях конкретной страны, региона или глобальных отношений имеют актуальное значение.

В мире проводятся научные исследования идеологических процессов в ходе развития человечества, в частности, ранних идеологических воззрений, первоначальной идеологической трансформации, идеологических процессов в Средневековье, эпохи Возрождения в Европе, факторов, создавших Первый и Второй Ренессансы в Средней Азии, идеологической политики колониализма, идеологических вопросов независимости. Определяются виды, содержание идеологических конфликтов и направления их идеологического решения. Возрастает потребность в научном обосновании социально-идеологической значимости создания научной картины идеологических процессов.

В Узбекистане, принимая во внимание роль идеологической работы как локомотива развития и следуя строгой норме развития общественной жизни на основе многообразия политических институтов, идеологий и мнений, определенных в правовых рамках, общество движется к дальнейшей либерализации жизни. Протягивание руки безусловной дружбы своим близким и дальним партнерам, обеспечение свободы информации на практике, популяризация журналистской и блогерской деятельности свидетельствуют о том, что в идеологической жизни общества создаются равные возможности и права. Учитывая важное значение идеологических перемен для жизни нашего общества, находящегося сегодня на пути обновления, признается необходимость новой идеологии, ибо «Идеологией создаваемого нами Нового Узбекистана будут доброта, человечность, гуманизм»¹. В этом смысле формирование современной, прагматичной и латентной формы национальной идеологии, отражающей содержание реформ в общественно-политической, экономической, духовно-просветительской и других сферах нашего общества, способной донести их до сознания и сердца граждан имеет первостепенное значение.

¹ Выступление Президента Шавката Мирзиёева на видеоселекторном совещании по вопросам кардинального совершенствования системы духовно-просветительской работы 19 января 2020 года. // <https://uzreport.news/politics/ideologiyey-sozdavaemogo-nami-novogo-uzbekistana-budut-dobrota-chelovechnost-gumanizm-shavk>

Данное исследование в известной степени служит реализации задач, определенных в Указах №УП-6084 «О мерах по дальнейшему развитию узбекского языка и совершенствованию языковой политики» от 20 октября 2020 года, №УП-6108 «О мерах по развитию сфер образования и воспитания, и науки в новый период развития Узбекистана» от 6 ноября 2020 года, №УП-6255 «Об утверждении Национальной стратегии Республики Узбекистан по противодействию экстремизму и терроризму на 2021-2026 годы» от 1 июля 2021 года, №УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы» от 28 января 2022 года, в Постановлении №ПП-5040 «О мерах по коренному совершенствованию системы духовно-просветительской работы» от 26 марта 2021 года, Постановлениях Кабинета Министров Республики Узбекистан №340 «Об организации деятельности Института социально-духовных исследований при Республиканском центре духовности и просвещения» от 3 июня 2021 года, №558 «Об утверждении Концепции повышения эффективности духовно-просветительской и воспитательной работы в учреждениях общего среднего образования» от 3 октября 2022 года, а также в других нормативно-правовых актах, связанных с темой данного исследования.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий Республики I. «Социальное, правовое, экономическое, духовно-культурное развитие информационного общества и демократического государства, формирование системы инновационных идей и путей их реализации».

Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации¹.

На основе эффективного использования результатов когнитивных исследований по проблеме идеологии научные исследования, связанные с совершенствованием системы страновых, региональных и глобальных отношений, осуществляются такими ведущими мировыми научными центрами, как Development Research Center of the State Council (DRC) of the People's Republic of China (Китай), Chinese Academy of Social Sciences (CASS) (Китай), Center for China and Globalization Studies (Китай), The Centre for the Study of Political Ideologies (CSPI) (Великобритания), Research Institute of Culture and Ideology (REINCI) (Пакистан), The Peace Research Institute Oslo (PRIO) (Норвегия), Центр исследования проблем безопасности Российской академии наук (ЦИПБ РАН) (Россия), Carnegie Endowment for International Peace (США).

Большинство исследований в области идеологии в мире имеют исторические, философские, культурные, религиозные или политические различия, и на основе проведенных изысканий по данной диссертационной

¹<https://en.drc.gov.cn/> <https://council.science/member/china-chinese-academy-of-social-sciences-cass/>
<http://en.ccg.org.cn/> <https://www.nottingham.ac.uk/cspi/> <https://reinci.com/> <https://www.prio.org/>
<https://spsc-ras.ru/spsc-ras/> <https://carnegieendowment.org/>

